



O‘ZBEKISTON VA ROSSIYA O‘RTASIDAGI QO‘SHMA DASTURLARNI QO‘LLAB-QUVVATLASH VA JADALLASHTIRISHDA PARLAMENTLAR FAOL ISHTIROK ETADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 14-mart kuni Rossiya Federatsiyasi Federal Majlisi Davlat Dumasi Raisi Vyacheslav Volodinni qabul qildi. O‘zbekiston bilan Rossiya o‘rtasidagi keng qamrovli strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarining dolzarb masalalari ko‘rib chiqildi.



Uchrashuv avvalida yuqori martabali mehmon davlatimiz rahbariga Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putinning salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

O‘tgan yil may oyida Rossiya Prezidentining O‘zbekistonga davlat tashrifi chog‘ida erishilgan kelishuv va bitimlarning amalga oshirilishini nazorat qilish maqsadida parlamentlararo hamkorlikni kengaytirishga alohida e‘tibor qaratildi.

Mamlakatimiz yetakchisi Parlamentlararo komissiyaning ikkinchi yig‘ilishiga puxta tayyorgarlik ko‘rish va uni O‘zbekistonda, ikki mamlakat hududlarini keng jalb etgan holda o‘tkazish muhimligini ta‘kidladi.

Savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlikning ustuvor loyihalarini, mehnat migratsiyasi va madaniy-gumanitar almashinuv borasidagi qo‘shma dasturlarni qo‘llab-quvvatlash va jadallashtirishda parlamentlar faol ishtirok etishi zarurligi qayd etildi.

O‘zA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Matbuot xizmati surati.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining QARORI

IMOM MOTURIDIY TAVALLUDINING 1155 YILLIGINI KENG NISHONLASH TO‘G‘RISIDA

Buyuk vatandoshimiz, islomiy ilmlar rivojiga ulkan hissa qo‘shgan benazir alloma, kalom ilmining sultoni Imom Abu Mansur Moturidiyning (keyingi o‘rinlarda — Imom Moturidiy) ibratli hayot yo‘li va boy ilmiy-ma‘naviy merosini har tomonlama chuqur o‘rganishni rag‘batlantirish, moturidiylik ta‘limotiga xos bag‘rikenglik va mo‘tadillik tamoyillarini xalqimiz va jahon jamoatchiligi o‘rtasida keng targ‘ib etish, yoshlarni Vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlariga hurmat ruhida tarbiyalash maqsadida **qaror qilaman:**

1. Din ishlari bo‘yicha qo‘mita, O‘zbekiston musulmonlari idorasi, Samarqand viloyati hokimligi, O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi, Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining 2025-yilda Imom Moturidiy tavalludining 1155 yilligini keng nishonlash to‘g‘risidagi taklifi ma‘qullansin.

2. Imom Moturidiy tavalludining 1155-yilligiga bag‘ishlangan tadbirlarga tayyorgarlik ko‘rish va ularni o‘tkazish bo‘yicha **tashkiliy qo‘mita** (keyingi o‘rinlarda — Tashkiliy qo‘mita) tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tashkiliy qo‘mita (A.Aripov) ikki hafta muddatda Imom Moturidiy tavalludining 1155 yilligini alomanning islom olamidagi obro‘-e‘tibori va nufuziga munosib tarzda yuqori saviyada nishonlash bo‘yicha quyidagilarni nazarda tutadigan chora-tadbirlar dasturini tasdiqlasin:

a) 2025-yil aprel oyida Samarqand shahrida **“Moturidiylik — bag‘rikenglik, mo‘tadillik va ma‘rifat ta‘limoti”** mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman o‘tkazish;

b) xorijlik tadqiqotchilar o‘rtasida moturidiylik ta‘limoti bo‘yicha **ilmiy tanlov** o‘tkazish, g‘oliblar ishtirokida O‘zbekistonda **madaniy-ma‘rifiy uchrashuv** va seminar-treninglar tashkil etish;

v) Imom Moturidiyning **“Ta‘vilot al-Qur‘on”** va **“Kitob at-tavhid”** asarlari va moturidiylik ta‘limotiga oid manbalarning o‘zbek va xorijiy tillardagi ilmiy-izohli akademik tarjimalarini nashr etish;

g) Imom Moturidiy tavalludining 1155 yilligiga bag‘ishlangan esdalik suvenirlarini muomalaga chiqarish hamda pochta markalari, taqvimlar, buyuk mutafakkirning hayoti va ilmiy merosini yoritib beradigan boshqa ko‘rgazmalari axborot vositalari turkumini yaratish;

d) Imom Moturidiyning serqirra hayot yo‘li va ilmiy merosining bugungi kundagi ahamiyatini ochib beradigan **badiiy-publististik film** yaratish;

e) Samarqand viloyatida Imom Moturidiy va moturidiylik ta‘limoti yo‘nalishida faoliyat olib borgan allomalarning hayoti, ilmiy va ijodiy merosiga bag‘ishlangan asarlarning **nodir qo‘lyozma va nashr nusxalari** hamda **kitoblari ko‘rgazmasini** tashkil etish;

j) Samarqand shahridagi Abu Mansur Moturidiy majmuasini qayta ta‘mirlash va obodonlashtirish.

4. Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi:

a) Din ishlari bo‘yicha qo‘mita bilan birgalikda 2025-yil may va oktabr oylarida Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida Oliy ta‘lim muassasalarini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan **“Moturidiylik ta‘limoti va hozirgi zamon”** mavzusida respublika ilmiy-amaliy konferensiyasini hamda **ilmiy maqolalar tanlovi**ni o‘tkazsin;

b) moturidiylik ta‘limotiga mansub allomalarning ilmiy merosi va noyob qo‘lyozma asarlarni o‘rganish bo‘yicha ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladigan ilmiy-tadqiqot ishlariga davlat buyurtmasini belgilangan tartibda shakllantirib borsin.

5. O‘zbekiston musulmonlari idorasiga imom-xatiblar hamda diniy ta‘lim muassasalari talabalari o‘rtasida **“Moturidiylik ta‘limoti bilimdoni”** tanlovi o‘tkazish va g‘oliblarni munosib taqdirlash tavsiya etilsin.

6. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari Din ishlari bo‘yicha qo‘mita, Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi, Yoshlar ishlari agentligi, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi bilan birgalikda 2025-yil davomida joylarda Imom Moturidiyning ilmiy merosiga bag‘ishlangan davra suhbatlarini tashkil etsin.

7. Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi Madaniy meros agentligi bilan birgalikda:

a) xorijiy mamlakatlarda saqlanayotgan Imom Moturidiy va moturidiylik ta‘limotiga mansub allomalarning hayoti va ilmiy merosiga oid noyob qo‘lyozma asarlar va boshqa madaniy boyliklarni aniqlash, ularning nusxalarini O‘zbekistonga olib kelish va taqqiq qilishni tizimli ravishda tashkil etsin;

b) Imom Moturidiyning hayoti va ilmiy faoliyatiga bag‘ishlangan yuqori sifati mediamahsulotlar hamda audiovizual asarlar yaratish, ularni mahalliy va xorijiy ommaviy axborot vositalarida e‘lon qilish, internet tarmog‘i va ijtimoiy tarmoqlarda keng targ‘ib qilish choralari ko‘rsin.

8. O‘zbekiston Milliy axborot agentligi, O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, “Dunyo” axborot agentligi va O‘zbekiston milliy media assotsiatsiyasiga Imom Moturidiy tavalludining 1155 yilligini nishonlash bilan bog‘liq tadbirlarni keng yoritib borish tavsiya etilsin.

9. Mazkur qaroming ijrosini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N.Aripov hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi R.Q.Davletov zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti

SH. MIRZIYOYEV

Toshkent shahri,
2025-yil 14-mart

MADANIY ALOQALAR — ikki mamlakat do‘stligining mustahkam poydevori

Davlatimiz rahbarining Fransiya tashrifi ikki mamlakat o‘rtasidagi strategik sheriklikni yanada rivojlantirish, diplomatik hamkorlikni mustahkamlash, savdo-iqtisodiy aloqalarni kengaytirishga xizmat qilishi shubhasiz. Tashrif nafaqat siyosiy va iqtisodiy, balki madaniy-gumanitar hamkorlikning ham yangi bosqichga ko‘tarilishini anglatadi.

O‘zbekiston va Fransiya o‘rtasidagi do‘stona munosabatlar 2016-yildan keyin yanada rivojlanib, yangi bosqichga ko‘tarildi. Xususan, 2018-yili Prezidentimizning Fransiya ilk rasmiy tashrifi natijasida hukumatlararo va idoralararo 10 ta muhim hujjat imzolandi. Shuningdek, Fransiya tashqi

ishlar vazirligi bilan 2023-2024-yillarga mo‘ljallangan hamkorlik dasturi hamda umumiy qiymati 6 milliard yevrodan ortiq savdo, iqtisodiy va investitsiyaviy loyihalar bo‘yicha kelishuvga erishilgan edi.

► Davomi 2-beta

FRANSIYA “YASHIL IQTISODIYOTI”

UNDAN NIMALARNI O‘RGANISH MUMKIN?

Jahonda yuz berayotgan global ekologik muammolar va sayyoramiz aholisi o‘rtasidagi iqtisodiy nomutanosiblik “yashil iqtisodiyot” konsepsiyasi paydo bo‘lishiga olib keldi. Dunyoda bir necha o‘n yillardan buyon iqlim o‘zgarishiga qarshi maqsadli kurash davom etayotgani ana shu yo‘ldagi sa‘y-harakatlar natijasi. Chunki kelajakni usiz tasavvur etish mushkul.

“Yashil iqtisodiyot”ni barqarorlik va resurslardan samarali foydalanish, atrof-muhitga salbiy ta‘sirlarni kamaytirishga qaratilgan iqtisodiy rivojlanish konsepsiyasi, desak mubolag‘a emas. Uning

asosiy maqsadi tabiiy resurslarni saqlash va global ekologik halokatning oldini olishga qaratilgan bilan ahamiyatlidir.

► Davomi 2-beta

KORRUPSIYA — jamiyat tanasidagi saraton

“OLDI-BERDI”LARNI YO‘QOTISH O‘Z QO‘LIMIZDA


BU BARCHAMIZNING VIJDON ISHIMIZDIR

Har qanday yuksak taraqqiyotga erishgan davlat yoki jamiyat, ulkan muvaffaqiyatlarni qo‘lga kiritgan shaxslar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, ulardagi boshqalar havas qiladigan katta yutuq va olamshumul natijalar asosini ilm bilan birga ishonch va shijoat tashkil etadi. Zero, biror ishga kirishishda unga ishonchingiz qanchalik mustahkam bo‘lsa, shijoatingiz va o‘z navbatida, natija ham shunga yarasha samarali bo‘ladi. Aksincha, korrupsiya balosi ham borki, u odamlarda, jamiyatda ishonchsizlikka sabab bo‘ladi, shijoatimiz shashтини so‘ndiradi.

Mamlakatimizda yangi O‘zbekistonni barpo etish, Uchinchi Renessans poydevorini yaratishdek buyuk maqsadlar yo‘lida boshlangan islohotlar, tarixiy yangilanish jarayoniga yurtdoshlarimiz katta ishonch bildirdi. 37 million nufusli ishonch birlashib, katta shijoatga aylandi va u tarixan juda qisqa davr — keyingi 7-8 yilda biz uzoq yillar kutgan, orzu qilgan kunlarni, natijalarni tuhfa qildi. Buni har birimiz ilgari kunlab

vaqtimiz ketgan davlat xizmatlaridan bugun byurokratiyasiz, elektron foydalanayotganimiz, o‘g‘limiz zamonaviy ko‘p qavatli uylarga ko‘chib chiqqani, qizimiz oliy ta‘limda imtiyozli o‘qiyotgani, qishlog‘imizda chiroq o‘chmayotgani yoki ko‘chalari asfaltlashtirilgani, fikrimizni erkin ayta olayotganimiz kabi minglab misollarda ko‘rishimiz mumkin.

► Davomi 3-beta



MADANIY ALOQALAR — IKKI MAMLAKAT DO'STLIGINING MUSTAHKAM POYDEVORI



Munajjat YO'LCHIYEVA,
O'zbekiston xalq artisti, senator,
O'zbekiston Qahramoni

fransuz tilini o'rganmoqda. Tahlillarga ko'ra, mamlakatimizdagi 700 ga yaqin maktab va 13 ta universitetda fransuz filologiyasi bo'yicha ta'lim beriladi.

Toshkentda joylashgan Alliance Française markazi o'zbek yoshlariga fransuz tili va madaniyatini chuqur o'rganish imkonini bermog'ida. Oliy ta'lim sohasidagi hamkorlikning yana bir muhim jihati Toshkentda Strasburg va Sorbonna universitetlari filiallarining ochilishidir. Ushbu filiallar orqali O'zbekiston yoshlari Fransiyaning yuqori sifati ta'lim tizimidan bevosita foydalanish imkoniyatiga ega bo'lmoqda.

Endi ushbu hamkorlikni yanada rivojlantirish, parlamentlararo muloqot va qonunchilik sohasidagi tajriba almashinuvini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, O'zbekistonning madaniy va ilmiy merosini Fransiyada targ'ib qilish, turizm va ta'lim aloqalarini kengaytirish orqali ikki mamlakat xalqlari o'rtasidagi do'stlik va o'zaro tushunishni yanada mustahkamlashga e'tibor qaratiladi.

Davlat tashrifi davomida ikki mamlakat yetakchilari imzolagan muhim hujjatlar orasida Musiqa, kino va teatr sohasidagi hamkorlik to'g'risida deklaratsiya hamda Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi bilan Fransiya Madaniyat vazirligi, Madaniy meros milliy instituti va Markaziy Osiyo tadqiqotlari instituti o'rtasidagi hamkorlik bitimlari ham bor. Bu barcha yo'nalish qatori xalqlarimiz o'rtasida madaniyat, san'at sohasidagi hamkorlik istiqbolida yanada yuqori pog'onaga ko'tariladi, deganidir.

Boshlanishi 1-betda

Madaniy aloqalar O'zbekiston — Fransiya munosabatlarida muhim o'rin tutadi. 2022-yilda Parijdagi Luvr muzeyida "O'zbekiston vohalari xazinolari: karvon yo'llari chorrahasida" nomli ko'rgazma tashkil etildi. Ushbu tadbir O'zbekistonning boy madaniy merosini Fransiya jamoatchiligi bilan yaqindan tanishtirishga xizmat qildi. Mahalliy aholi va mutaxassislar ko'rgazma eksponatlariga katta qiziqish bildirdi. Umuman, xorijda o'zbek xalqining boy madaniy merosiga, osori atiqalariga qiziqish juda yuqori.

Bundan tashqari, ikki mamlakat o'rtasidagi ta'lim aloqalari ham jadal rivojlanmoqda. Hozir O'zbekistonda 200 mingga yaqin o'quvchi va talaba ishitiyoq bilan

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



“Fransiya “yashil iqtisodiyot”i atrof-muhitni oqilona boshqarish va texnologik salohiyat orqali barqaror o'sishni ta'minlashga ham qaratilgan. Bunda, avvalo, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish orqali atrof-muhitga zararli ta'sirni kamaytirishga e'tibor kuchaytirildi. Natijada mamlakat sanoatida elektr energiyasi sarfi 28 foiz, uy-joy qurilishida 20 foiz, og'ir yuk ko'taruvchi avtomobillarda 11 foiz kamaydi.

FRANSIYA “YASHIL IQTISODIYOTI”

UNDAN NIMALARNI O'RGANISH MUMKIN?



Nurbek RIZAYEV,
iqtisodiyot fanlari doktori,
professor

Boshlanishi 1-betda

“Yashil iqtisodiyot”ga o'tish borasida xalqaro doirada yetarlicha tajriba to'plangan va ular bugungi kunda muvaffaqiyatli amalga oshirib kelinmoqda. Xususan, Fransiya “yashil iqtisodiyot” shakllanishi va taraqqiyot etishiga katta hissa qo'shib kelayotgan yetakchi mamlakat sifatida tan olingan. Chunonchi, bugungi kunda BMTning Iqlim o'zgarishi to'g'risidagi hadli konvensiyasining Parij bitimi dunyo miqyosida amal qiladi. O'zbekiston ham mazkur bitim doirasida mamlakatning global hamjamiyat oldida olgan majburiyatlarini bajarishda tarmoq va sohalarning uyg'un “yashil” transformatsiyasini amalga oshirish, raqobatdoshlikni ta'minlash, iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish, aholining yashash sifatini yaxshilash, umuman, iqtisodiyotda “yashil” rivojlanish modeliga o'tmoqda.

Fransiya “yashil iqtisodiyot”i makroiqtisodiy muvozanatni ta'minlash va tabiiy resurslar narxlarini barqarorlashtirish imkonini beruvchi yangi mahsulotlar yaratish, ekologik texnologiyalar, innovatsion ishlab chiqarish usullarini qo'llashni rivojlantirish hamda “yashil” investitsiya hajmini oshirishga ijtimoiiy va ekologik ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan rentabellikni ta'minlash muhim hisoblanadi. Ekologik tadbirkorlik ijtimoiiy hayotni harakatlantiruvchi omili sifatida faoliyat ko'rsatmoqda.

Fransiya “yashil iqtisodiyot”i atrof-muhitni oqilona boshqarish va texnologik salohiyat orqali barqaror o'sishni ta'minlashga ham qaratilgan. Bunda, avvalo, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish orqali atrof-muhitga zararli ta'sirni kamaytirishga e'tibor kuchaytirildi. Natijada mamlakat sanoatida elektr energiyasi sarfi 28 foiz, uy-joy qurilishida 20 foiz, og'ir yuk ko'taruvchi avtomobillarda 11 foiz kamaydi.

2035-yilga kelib mamlakatda faqat elektr transport vositalaridan foydalanish rejalashtirilgan. Dengiz shamolidan olinadigan energiyani 2050-yilda qayta tiklanuvchi energiyaning asosiy manbaiga aylantirish kutilmoqda. Buning uchun elektromobillar ishlab chiqarish hajmi yiliga 2 million donaga yetkaziladi. Ekologik muvozanatni saqlash uchun keyingi o'n yilda 1 milliard daraxt ekilishi ko'zda tutilgan.

Chiqindilarni kamaytirish va qayta

ishlashni rag'batlantirish orqali yirik shaharlarda bir martalik plastmassalarni taqiyqlash va iste'molchilarni qayta ishlashga o'rgatish choralarini ko'riyapti. Jumladan, “yashil” sanoat (Industrie verte) bo'yicha qonun qabul qilingan bo'lib, uning bosh maqsadi sanoatni global ekologik talablarga moslashtirish chora-tadbirlarini tavsiflash, kam uglerodli iqtisodiy faoliyatda yetakchilik mavqeiini mustahkamlashdir.

Bugungi kunda Fransiyada qayta tiklanuvchi energiya manbalarini (Renewable Energy) rivojlantirish, atom elektr stansiyalarini kengaytirish hamda elektr transport vositalari yordamida “yashil iqtisodiyot”ga o'tishni tezlashtirishga jiddiy kirilishgan. Bular sanoat zonalarida, avtomobil yo'llari bo'yab va temir yo'l tarmoqlarida quyosh panellarini joylashtirish uchun yangi hududlarni aniqlash imkonini beradi. Shuningdek, qo'shni mamlakatlar bilan o'zaro hamkorlik o'rnatilmoqda. Masalan, Ispaniya va Portugaliya bilan “MidCat” magistral gaz quvuri loyihasi bo'yicha “yashil energiya yo'lagi” yaratishga kelishib olingan. Bu loyiha ishga tushsa, “yashil” energiya manbalarini Fransiya orqali Yevropaning qolgan qismiga o'tkazish mumkin. Ya'ni ushbu loyiha orqali Yevropa Itifoqi energiya tarmoqlari birlashtirilib, “yashil” energiyaga o'tish ishlari jadallashadi.

Fransiyaning “yashil iqtisodiyot” bo'yicha tajribasini o'rganish va undagi eng

muhim yo'nalishlarni joriy etish katta ahamiyat kasb etadi. E'tiborlisi, bu boradagi ishlar “O'zbekiston — 2030” strategiyasida ustuvor vazifalar sifatida belgilab olingan. Xususan, Parij bitimi talablaridan kelib chiqib, O'zbekistonning uglerod neytralligiga erishishning uzoq muddatli strategiyasi ishlab chiqiladi. Tabiiy gaz, chiqindilar va chorvachilik sohaslarida metan emissiyasining bazaviy holati aniqlanadi. Umumiy quvvati 4,5 gigavattli yirik quyosh va shamol elektr stansiyalarini barpo etish orqali jami qayta 225 megavattli quyosh panellari o'rnatish, quvvati 225 megavatt bo'lgan gidroelektr stansiyalarini barpo etish orqali jami qayta energiyasi ishlab chiqarishda 26 foizga, jami generatsiya quvvatlari tarkibidagi ulushi 40 foizga yetkaziladi. Yangi quriladigan bino-inshootlar va uy-joylarning energiya samaradorligidan kelib chiqib, “Yashil bino” sertifikatini joriy qilindi.

Mamlakatimizda “yashil” texnologiyalarni joriy etish, suvni tejash, ko'kalamzor hududlarni keskin ko'paytirish, chiqindilar muammosini hal qilish, eng muhimi, aholi salomatligini mustahkamlash kabi masalalarni hal etib borish har doim ustuvor bo'lib qoladi. Iqtisodiy o'sishning yangi “yashil” rivojlanish modeliga o'tish, ekologik vaziyatni yaxshilash va dunyodagi ijtimoiiy muvozanatni ta'minlashga xizmat qilish barobarida odamlar turmush tarziga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Yangi nashr

“O'ZBEK JURNALISTIKASI ANTOLOGIYASI” KITOBINING ILK NUSXASI CHOP ETILDI



O'zbek jurnalistikasi uzoq va boy tarixga ega. Bu tarixni tadqiq etish, milliy jurnalistikamizning shakllanish va rivojlanish bosqichlari haqida kengroq ma'lumotga ega bo'lish, har bir davrning eng yaxshi jurnalistik materiallarini kelgusi avlodga yetkazish muhim masala. To'g'ri, shu paytgacha media sohaga doir ko'plab darslik va qo'llanmalar, milliy jurnalistikamiz shakllanishi va rivojlanish bosqichlariga oid ma'lumotlar o'rin olgan kitoblar nashr etilgan. Ammo ayni kunga qadar o'zbek jurnalistikasi antologiyasi xalq holatida yaratilmagan edi.

Bir necha yil avval ham mazkur ishni amalga oshirish uchun harakatlar bo'lgan, lekin muayyan sabablarga ko'ra, ish har doim yakunlanmay qolaverardi.

Prezidentimizning 2022-yil 27-iyundagi “Ommaviy axborot vositalarini qo'llab-quvvatlash va jurnalistika sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori bilan tasdiqlangan 2022-2023-yillarda ommaviy axborot vositalarini qo'llab-quvvatlash va jurnalistika sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari dasturida “O'zbek jurnalistikasi antologiyasi” kitobini nashrga tayyorlash belgilangan edi. Shu asosda zarur mablag' ajratildi. Natijada tarixiy kitob — milliy jurnalistikamiz antologiyasini yaratish imkonini tug'ildi.

Yuqorida ta'kidlangan dasturda qayd etilganidek, O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, O'zbekiston Milliy axborot agentligi va O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi mas'ullari hamkorligida ishga kirishildi. Dastlab ushbu muhim kitobni nashrga tayyorlash masalasi soha olimlari, ustoz va tajribali jurnalistlar, media uchun kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari

ishtirokida keng muhokama qilindi, ishchi va ijodiy guruhlar shakllantirildi. Mahalliy va xalqaro tajribalar o'rganildi.

O'rganishlar, bildirilgan taklif va tavsiyalar asosida “O'zbek jurnalistikasi antologiyasi” kitobini nashrga tayyorlash bo'yicha reja ishlab chiqildi. Unda belgilanganidek, yaratiladigan antologiya “Qadimgi davr jurnalistikasidan lavhalar”, “O'rta asrlar adabiyoti — milliy jurnalistika shakllanishi va takomillining asosi”, “Jadidlar va Ikkinchi jahon urushigacha bo'lgan davr”, “O'zbekistonning Ikkinchi jahon urushi davri jurnalistikasi”, “Turg'unlik davri jurnalistikasi: murakkab siyosiy jarayon va matbuotdagi evrilishlar”, “Qayta qurish va oshkorlik davri”, “Mustaqillik davri o'zbek matbuoti”, “Mustaqillik yillari televideniyesi va radiosi”, “Mustaqillik davri internet jurnalistikasi” davrlarini o'z ichiga olishi kerak, degan to'xtamga kelindi. Har bir davrga oid materiallarni tayyorlovchi ishchi guruh a'zolari va rahbarlari tayinlandi.

Bir so'z bilan aytganda, ushbu kitob jildlarini nashrga tayyorlash oson kechmadi. Ish jarayonida arxiv va kutubxona fondlarida saqlanayotgan tarixiy hujjat va gazetalardan fotonusxalar, turli davrlarda chop etilgan

eng sara publististik maqolalar, ocherk va felyetonlardan namuna va parchalar olishga to'g'ri keldi. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi mas'ullari bu borada yordamini ayamadi.

Uzoq vaqt izlanish va hamkorlikda qilingan mehnat natijasida 2 jildli “O'zbek jurnalistikasi antologiyasi” kitobi nashrga tayyorlandi. Mazkur antologiyaga milliy jurnalistikamiz shakllanish bosqichlariga doir eng muhim ma'lumotlarni kiritishga harakat qilindi. Ilk nusxasi chop etilgan ushbu kitobning har bir jildi yaqin vaqt ichida “O'zbekiston” nashriyoti tomonidan ming nusxadan nashr etiladi.

Antologiyada kamchilik va noaniqliklar, sohada o'z o'rniga ega yoki milliy jurnalistikamiz rivojiga katta hissa qo'shgan ba'zi ustozlar kitobga kirmay qolgan bo'lishi mumkin. Uyushma bu boradagi ishni davom ettirib, mazkur kitobning 3 va 4 jildlarini ham nashr etishni maqsad qilgan. Demak, o'sha kamchiliklar o'rini to'ldirish, milliy jurnalistikamiz va uning chin fidoyilari va ustozlari haqida to'liq ma'lumot beradigan bir necha jildli kitob dunyoga keladi.

Milliy jurnalistikamizning rivojlanish bosqichlari bilan bog'liq muhim va qimmatli ma'lumotlar jamlangan “O'zbek jurnalistikasi antologiyasi” yurtimiz ommaviy axborot vositalari vakillari, ijodkorlar, tadqiqotchilar, jurnalist kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari o'qituvchi-talabalari uchun muhim manba bo'lib xizmat qiladi, degan umiddamiz.

Xolmurod SALIMOV,
O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi raisi
vazifasini bajaruvchisi

Prezident tashabbusi amalda

HAYOT TAYANCHIGA AYLANGAN AN'ANA

“Daraxt yaprog'i bilan ko'rkam, inson mehnati bilan”, deyiladi xalq maqolida. Insoniyatning tabiat bilan uyg'un bo'lmay yashay olinmasligi kun sayin hayotimizda aks etmoqda. 2025-yilning “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yili” deb nomlangani ham masalaning o'ta dolzarbligidan dalolat. Zotan, mamlakatimizning ekologik barqarorligi va iqlim o'zgarishiga moslashuvi borasidagi sa'y-harakatlar strategik ahamiyatga ega.

“O'zbekiston — 2030” strategiyasida urg'u berilgan tarmoq va sohalarning uyg'un “yashil transformatsiya”sini amalga oshirish, raqobatbardoshligi va resursejamonkorligini ta'minlash nomiga aytilgan ibora va so'zlar jamlanmasi emas. Xususan, “yashil transformatsiya”ga o'tish mamlakat rivojlanishidagi ustuvor yondashuv bo'lib, mahallalarning ekologik qiyofasini yaxshilash, barcha hududda yashillik darajasini oshirish, ekologik ifitadidan qulay va farovon muhitni shakllantirishga qaratilgan.

Soddaroq aytganda, “yashil transformatsiya” turli mahsulotlar ishlab chiqarish yoki biror turdagi xizmat ko'rsatishda atrof-muhitni ifloslantiruvchi resurslardan foydalanish borasida nisbatan yanada xavfsiz, tejamkor usullarga o'tishni anglatadi. Bularning barchasi iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish, ishlab chiqarishning atrof-muhitga salbiy

ta'sirini kamaytirish, barqaror kelajakka ko'maklashishga qaratilgan.

“Yashil” o'sish shunchaki ko'chat ekishni ko'paytirish, ko'kalamzorlashtirish degani emas. Bu farovonligimizni ta'minlashda asosiy manba bo'lgan tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va iqtisodiy rivojlantirishni rag'batlantirish bilan chambarchas bog'liq.

Mamlakatimiz rahbari tomonidan shu yil 30-yanvar kuni tomonroqda va ijara berilgan ekin yerlarida daromadli mahsulot yetishtirishning yangi tizimi bo'yicha o'tkazilgan videoselektorda Agrosanoatni rivojlantirish agentligi oldiga ham muhim vazifalar qo'yildi. Jumladan, Surxondaryo, Qashqadaryo va Samarqand viloyatlarida istiqomat qilayotgan ehtiyojmand aholi tomonidan yetishtirish uchun serhosil xurmo hamda anjir ko'chatlari yetkazib berish vazifasi yuklatilgandi.



Ushbu topshiriqdan kelib chiqib, agentlik ma'lumotiga ko'ra, ushbu viloyatlardagi ijtimoiiy dafarga kiritilgan oilalar tomonarasi uchun 1 million 828 ming tupdan ziyod ko'chat yetkazib berish rejalashtirildi. Hozirga qadar 26 mingta xonadonning har biriga 10 tupdan jami 260 ming tup ko'chat yetkazib berildi va bu jarayon qizg'in davom etmoqda. E'tiborlisi tomoni shundaki, mazkur jarayonda yuqori navli ko'chatlarni parvarishlash bo'yicha amaliy-o'quv darslari ham o'tilmoqda.

Ko'chat ekib bog' barpo etish, umuman dehqonchilik qilish xalqimiz qadrlaydigan, chin dildan ishlashangiz yaxshi natija beradigan yumush. — deydi denovlik Shahlo Baxtiyorova. — Ochig'i, keyingi paytlarda o'zimiz bunga qunt qilmay qo'ydik. Ilgari odamlar bahorda ataylab bozordan mevali daraxt ko'chati sotib olib kelib hovlisiga o'tqazardi. Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan tomonroq va dehqonchilik yerida yuqori daromadli ekinlar yetishtirish bo'yicha yangi tashabbuslar ilgari surilganidan juda mamnunmiz. Bugun shuning natijasiga muvofiq bo'lib turibmiz. Mevali ko'chatlar bepul tarqatilib, uyimizgacha olib kelib berilyapti. Bizdan esa ularni o'z vaqtida ekib, parvarishlash talab etiladi, xolos. Bu xonadonlar, bozorlarimiz to'kinligiga hissa qo'shadi.

Butun dunyo mamlakatlari o'zaro hamkorligida muhokama etilayotgan masalalar qatoridan, albatta, “yashil iqtisodiyot” mavzusi o'rin olayotgani diqqatga sazovor. Mamlakatimizda bu borada ko'rilayotgan chora-tadbirlar ko'kalamzor hududlarni kengaytirish, atrof-muhitni himoya qilish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, aholi salomatligini mustahkamlash kabi bir-biriga chambarchas masalalarni hal etish samaradorligini oshirishda kutilgan natijani beradi. Qolaversa, “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida manzarali va mevali daraxtlar bioxilma-xilligini saqlab qolish va ko'paytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Rustam BOYTO'RA,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri

KORRUPSIYA – jamiyat tanasidagi saraton

“OLDI-BERDI” LARNI YO‘QOTISH O‘Z QO‘LIMIZDA

BU BARCHAMIZNING VIJDON ISHIMIZDIR

Boshlanishi 1-betda

Lekin shu yil 5-mart kuni o'tkazilgan Korruptsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi yig'ilishida qayd etilganidek, korruptsiya islohotlarimiz yo'lidagi eng katta to'siq va g'ovdir. Demak, hali oldinda qiladigan ishimiz ko'p.

Davlatimiz rahbari mazkur yig'ilishda jamoatchilikka murojaat qilib, korruptsiyaga qarshi kurashish umummilliy vazifa, har bir vatanparvar yurtodoshimizning vijdon ishi ekanini bejiz ta'kidlamadi. Chunki korruptsiyaviy jinoyatlarning asosiy qismi — 75 foizi tuman va mahallada maishiy korruptsiya shaklida sodir etilyapti. Demak, “oldi-berdi”larni yo'qotish o'z qo'limizda. Buning uchun Prezidentimiz alohida qayd etib o'tganidek, “Hamamiz yagona kuch bo'lib harakat qilsak, albatta, katta ijobiy samaraga erishamiz. Shu bois, mahalla faollari, nuroniylar, ziyolilar, yozuvchi va shoirlar, san'at va madaniyat xodimlari, tadbirkorlar, taniqli shaxslar, rahbarlar, deputat va senatorlar — umuman butun jamoatchilik birlashib, korruptsiyaga “jamiyat tanasidagi saraton” sifatida qarashi kerak”.

Nega gap ishonch va shijoat, mamlakatimizdagi islohotlardan boshlanib, korruptsiya mavzusi tomon buriladi? Chunki quyida e'tiboringizga havola etilyotgan bir guruh yurtodoshlarimiz fikri korruptsiyaning jamiyatga, davlatga, kelajagimizga zarari, yig'ilishda ushbu illatning oldini olish bo'yicha belgilangan choralar ahamiyati haqida.



Rustam HOTAMOV,
IIV akademiyasi boshlig'i,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa
doktori, dotsent

Yangi O'zbekistondagi keng ko'lamli islohotlar inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, jamiyatda “inson qadri uchun” degan ezgu tamoyilni to'laqonli ro'yobga chiqarishga qaratilgan.

Inson qadri ulug'lash, avvalo, aholining farovonligini oshirish, qonun ustuvor jamiyatni barpo etish deganidir. Buning uchun har bir sohada ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash, xalq manfaatlariga xizmat qiladigan samarali tizim yaratish, korruptsiyaviy holatlarga butkul baham berish va ushbu illatga qarshi murosasiz kurashish lozim.

Bu borada Prezidentimiz Korruptsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi yig'ilishida islohotlar yo'lidagi eng katta to'siq va g'ov korruptsiya ekanini alohida ta'kidladi. Tanqidiy-tahliliy ruhda o'tgan yig'ilishda davlatimiz rahbari tomonidan aniq maqsadlarga yo'naltirilgan 55 ta tashabbus ilgari surildi. Muhim yo'nalishlar qatorida jinoyatlarni hisobga olish tizimini to'liq raqamlashtirish masalasiga ham e'tibor qaratildi.

ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR — KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHNING ENG SAMARALI YO'LLARIDAN BIRI

Hozir davlat tashkilotlari, idoralar faoliyatiga zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etish korruptsiyaga qarshi samarali kurash yo'nalishlaridan biridir. Raqamli texnologiyalar korruptsiyaga qarshi kurashish sohasida foydalanish uchun keng istiqbolga ega. Ular imkoniyatidan foydalangan holda transport vositalariga davlat raqam belgilarini berish, notariat va boshqa davlat xizmatlarini ko'rsatish, yer uchastkalarini ajratish, yo'l harakati qoidalariga rioya etilishini nazorat qilish kabi ko'plab sohada korruptsiya va suiiste'molchiliklarning oldini olishga qaratilgan samarali mexanizmlar joriy etildi va etilmog'da.

Masalan, bir paytlar O'zbekistonda korruptsiya xavfi yuqori bo'lgan sohalardan biri yo'l harakat xavfsizligi edi. Biroq so'nggi yillarda ushbu yo'nalishda ta'sirchan mexanizmlar joriy etilishi natijasida korruptsiyaviy holatlarga barham berildi.

Birinchidan, YPX xodimlari bodikamerada xizmat o'tashi amaliyoti joriy etildi. Bu amaliyotni xalqimiz xursandchilik bilan qabul qildi. Ikkinchidan, shaffoflik ta'minlandi, ya'ni “qo'l radari” va qog'oz protokoldan butkul voz kechildi. Bu amaliyot YPX xodimlari faoliyatini zamonaviylashtirish, raqamli texnologiyalar imkoniyatidan foydalanishga zamin hozirladi.



Jahongirmirzo IBROHIMOV,
Marg'ilon shahridagi
“Muhandisona” MCHJ direktori,
global kontent yaratuvchi

Uchinchidan, chiroyli, o'ziga xos avtorraqamlar auksionda sotilishi tartibi joriy etildi. Bu esa avtorraqamlarni ilgaridagidek faqat tanishi borlar emas, aksincha oddiy fuqarolar ham sotib olishiga imkoniyat paydo qildi. Qisqasi,



JINOYATLARNI HISOBGA OLISHNI RAQAMLASHTIRISH tizimda korruptsiyaning oldini oladi

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksida jinoyatga oid ma'lumotlarni ko'rib chiqish va hal etishga doir qator normalar belgilangan. Jumladan, jinoyatga oid arizalar, xabarlar va boshqa ma'lumotlar ro'yxatga olinishi va darhol yoki qo'shimcha tekshirish zarurati bo'lganda o'n sutka yoxud prokurorning ruxsati bilan bir oygacha muddatda hal qilinishi lozim. Ushbu muddat jinoyatga oid ma'lumotlar qayd etilgan vaqtdan boshlanib, holat bo'yicha jinoyat ishi qo'zg'atish yoki qo'zg'atishni rad qilish to'g'risida qaror chiqarilguniga yoxud tergovga qadar tekshiruv materiallari prokurorga yuborilguniga qadar bo'lgan vaqtni o'z ichiga oladi.

Tergovga qadar tekshiruv materiallari prokuratura organlariga yuborilishining boisi, jinoyat sodir etilgani to'g'risidagi ariza va xabarlarini ko'rish hamda hal qilish, tekshiruvni amalga oshirishning qonunda belgilangan tartibi, chiqarilgan qarorning qonuniyligini nazorat qilish prokurorning vakolatidir. Ushbu qoidalarda qonunchilikda tergovga qadar tekshiruv, ya'ni jinoyatga oid ariza, xabar va boshqa ma'lumotlar ro'yxatga olinishini hal qilish jarayonida raqamli texnologiyalarni nazarda tutadigan yoki uni cheklaydigan alohida norma ko'zga tashlanmaydi.

Bu borada ba'zi davlatlar tajribasi o'rganilganda, jinoyat ish yurituvchi jarayoni raqamlashtirilgani ijobiy samara berayotgani ma'lum bo'ldi. Masalan, Germaniyada jinoyat to'g'risida ariza, xabar va ma'lumotlarning raqamli tekshiruvini jinoyat-protsessual qonunchilik bilan tartibga solingan. Armaniston Jinoyat-protsessual kodeksiga ko'ra, yuridik shaxsning jinoyat to'g'risidagi xabari xizmat xati shakliga ega bo'lishi yoki telegramma, telefonogramma, radiogramma, elektron pochta yoxud boshqa tasdiqlangan ma'lumot ko'rinishida bo'lishi lozim. Bundan tashqari, mazkur tizim Gruzniya, Qozog'iston, Saudiya Arabistoni, Estoniya va boshqa davlatlarda ham yo'lga qo'yilgan.

Mamlakatimizda 2020-yilga qadar ichki ishlar organlariga kelib tushgan jinoyat va hodisalar haqidagi xabarlar qog'oz shaklda qabul qilinib, bu esa ma'lumotlarni o'z vaqtida ro'yxatga olish hamda jinoyat-protsessual qonunchilikda belgilangan muddatda hal qilishda salbiy holatlarni keltirib chiqarayotgan edi. Tizimdagi izchil islohotlar samarasi o'laroq ichki ishlar organlari faoliyatiga axborot texnologiyalari keng joriy qilingani natijasida “102” avtomatlashtirilgan axborot tizimi yo'lga qo'yildi. Ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yilda “102” xizmatiga 5 milliondan ortiq murojaat kelib tushgan, ularning barchasi qonunchilikda belgilangan tartibda ko'rib chiqilgan.

Albatta, jinoyatga oid ariza, xabar va boshqa ma'lumotlarni ro'yxatga olishning tezkorligi hamda inson omilidagi amalga oshirilishi ijobiy jarayondir. Bu o'rinda qayd etilgan ma'lumotlarni qonun talablari asosida tekshirish va hal etish jarayonini ham raqamlashtirish vazifasi dolzarb masala. Aynan bu borada 2021-yildan boshlab jinoyatga oid ariza, xabar va boshqa ma'lumotlarni elektron ro'yxatga olish va ko'rib chiqish natijalarining yagona elektron hisobini yuritish imkonini beruvchi “E-material” dasturiy moduli ishga tushirildi.

Belgilangan tartib bo'yicha “102” tizimi orqali qayd etilgan huquqbuzarliklarga oid ma'lumotlar tergovga qadar tekshiruv organi mansabdor shaxsiga yetkaziladi. Tergovga qadar tekshiruv organi xodimining murojaatni hal etish jarayoni situatsion-tahliliy markaz kuzatuvda bo'ladi. Bundan tashqari, “E-material” dasturiy moduli yordamida

jinoyatga oid ma'lumotlarni hal etish jarayoni bo'yicha prokurorlik hamda idoraviy nazorat ham amalga oshiriladi.

Biroq tahlillar jinoyatga oid ariza va xabarlarini “E-material” elektron axborot tizimi orqali ro'yxatga olish, ular bo'yicha tergovga qadar tekshiruv harakatlarini o'tkazishda protsessual qonunchilikka amal qilish yuzasidan idoraviy hamda prokurorlik nazoratini yanada kuchaytirish lozimligini ko'rsatadi.

Shundan kelib chiqib, “E-material” elektron axborot tizimiga jinoyatga oid ariza, xabar va boshqa ma'lumotlarning to'g'ri qayd etilishi bo'yicha prokuror nazoratini kuchaytirish, jinoyat ishi qo'zg'atishni rad qilish haqidagi har bir qaror loyihalashtirish prokuror va tergov organi rahbari tomonidan o'rganilib, jinoyat alohatlari mavjud emasligi to'g'risida xulosa qilish, yaqol jinoyat alohatlari mavjud bo'lgan ma'lumotlar bo'yicha darhol jinoyat ishi qo'zg'atish choralarini ko'rish jinoyatlarni hisobga olish faoliyatini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

Mazkur mexanizm joriy etilishi natijasida birinchidan, jinoyatga oid ariza, xabar va boshqa ma'lumotlarni o'z vaqtida qabul qilish hamda ro'yxatdan o'tkazish tizimi takomillashtiriladi.

Ikkinchidan, tergovga qadar tekshiruv faoliyati ustidan prokurorlik va idoraviy nazorat yanada kuchaytiriladi hamda jinoyatni hisobdan yashirish holatlariga barham beriladi.

Uchinchidan, jinoyat va hodisalarga oid ariza, xabar va boshqa ma'lumotlarni ko'rib chiqish hamda tergovga qadar tekshiruv jarayonini to'liq raqamlashtirish imkoniyati vujudga keladi. Eng muhimi, davlat organlarining vakolatli mansabdor shaxslari bilan bog'liq korruptsiyaviy jinoyatlarni oziqlantiruvchi omillar bartaraf etiladi.

ILLATNING KUSHANDASI — HALOLLIK!

Prezidentimiz rahbarligida korruptsiyaga qarshi tadbirlar, yo'nalishlar belgilab berilgan yig'ilishni ko'rib o'tirib, Shavkat Mirziyoyev yuksak minbarda turib muomalaga kiritgan “halollik vaksinasi” iborasi yodimga tushdi. O'shanda ijodiy ilhom jumbushiga kelib, ayni shu nomda juda o'tkir, g'oyat keskin ruhda felyeton-roman, pamflet-roman yozish ham mumkinligini chamalashga tushgandim.

Bunday g'oya tug'ilishiga ikki omil — ikki asos dalda bergandi: birinchisi — tasavvur qilaylik, jon do'stlar, millatdoshlar, halollik tuyg'usi xalqimizning qon-qoni, jon-joniga singib ketganiga necha asr, necha mingyilliklar shohid bo'lmagan deysiz?! Nahotki o'zbek degan xalq bashariyat taraqqiyot cho'qqisiga chiqqan bir pallada halollik shifosini izlab qolsa! Axir uning o'rni niyatning avvalida, ishing boshida emasmi?!

Ona vujudida topishgan ikki tomchining “zimmasi”dagi eng oliy martaba, eng oliy maqom halollik ekanini kim, qachon, qayerda, qanday qilib insoniylik rubasi darajasiga ko'targan? Ongli, farosatli, palagi toza insonning hayot nuqtasi o'sha halhalardan boshlangan, o'sha nuqta bilan yakuniga yetgan. Boshqasi bekor, boshqasi yolg'on, boshqasi afsona!

Qo'lg'a qalam olishga dalda vazifasini o'tagan ikkinchi omil — halollik ehtiyoji milliy ofat darajasiga ko'tarilgani! Illat sifatida oliy darajada e'tirof etilishi! Alloh asrasin, ikki sayyora to'qnashib ketsa, zilzila ro'y bersa, to'g'on qo'porilsa va hokazo bala-qazolar boshga tushsa, butun xalq oyoqqa turadi. Jamiyatning halollikdan yuz o'girishi, nohalollik (harom demoklikka til bormayapti!) faxr-iftixorga, shon-sharafga aylinishi esa har qanday dahshatli ofatdan ko'ra dahshatliroq, yovuzroq tabiiy ofatdir! Nima, o'zbek mazkur achchiq haqiqatning milliy ofat darajasiga ko'tarilgani endi bilmog'dami? Endi ko'zi ochilmog'dami?!



Xurshid DO'STMUHAMMAD,
yozuvchi

Bunchalar yolg'onchi bo'lmajak?! Bunchalar ko'zimizni bo'yamasak?! Sodda-mug'ambrilik, anoyilik ham evi bilan-da, vatandoshlar!

Prezident korruptsiyaga qarshi kurashni umumxalq kayfiyatiga, turmush tarziga aylantirish dardor deb bilmog'da. Choralar belgilamog'da. Ammo-lekin yanayam ochiqroq ayttsak, oddiy xalq vakili, oddiy mehnatkash fuqaro korruptsiyachi emas, u sho'rlkning korruptsiyavozlik ortidan nonni tuya qilish imkoni ham yo'q. Ayanchli joyi shundaki, korruptsiyaning dodini berishga uning qo'li katalik qildi. O'z tiyat-zehniyatidagi halollik qo'rg'onida jonini asrab-avayab yashayveradi. Qo'rg'adi.

Bu qo'rqovni ham yengsa bo'lar, eng yomon va xavotirli qo'rqov — boshlangan ishning o'lda-jo'lda qolib ketishi. Xatarning kattasi — hamon tadbiriyatlik, kompaniyavozlik, o'zimiz va dunyoni aldash, chalg'itish “mahoratimiz”ning saqlanib qolayotganida!

Korruptsiyani tugatish va korruptsiyaning payini qirqish-yengishning birdan-bir chorasi — halollik! Adolatga, irodaga va albatta, kuchga tayangan HALOLLIK!

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

TO'G'RILIK BOR JOYDA HALOVAT BO'LADI

Davlatimiz rahbari korruptsiyaning oldini olish bo'yicha ishlar samaradorligi va kelgusidagi ustuvor vazifalarga bag'ishlangan kengaytirilgan yig'ilishda yurtimizda korruptsiyadan xoli muhit yaratish bo'yicha ishlariga baho berib, oldimizda turgan muhim vazifalarni aniq belgilab bergani barchamizni sergaklikka, hushyorlikka chorladi. Korruptsiya — taraqqiyot kushandasi. Shuning uchun unga qarshi kurash hammaning vazifasi bo'lishi kerak.

Shu o'rinda bir rivoyat yodimga tushdi. Tabiiy ofat yuz berib, butun boshli do'konga o't ketibdi. Hamma mol, jon talvasasida atrofga chopibdi, biroq o't iskanjasidan omon qolish chorasini topa olmay, katta miqdorda zarar ko'ribdi. Biroq bir savdogar xotirjam o'z yumushi bilan andarmon bo'lib yuraveribdi. Vaqti-soati bilan o't o'chirib, bunday qarasha, olov bo'ldo'kondomim mol-mulkiga ziyon-zahmat yetkazmagan ekan. Bunda hayratlangan odamlar unga yuzlanib, voqeaning sababi haqida so'rabdi. Shunda u “Halol yo'l bilan topilgan mol-u davlatning hajri hamma narsadan ustun turadi”, deya ko'pga ibrat bo'lgan ekan.

Bu rivoyat haqiqatga qanchalik mos kelishini bilmadim. Ammo uning zamirida halollik, to'g'rilik, xolislik, mehnat va izlanish ortidan topilgan molu davlatning qadr-qimmat ulug'langanini ilg'ab olish qiyin emas. Yig'ilishda korruptsiyon holatlar bilan bog'liq salbiy ko'rinishlar mahallalardagi xizmat ko'rsatish sohasida uchrab turgani alohida qayd etildi. Yana bir og'riqli masala to'y-hashamlarda ufga aylanib ketgan ortiqcha dabbadabozlik, kimo'zarlik bilan bog'liq. Bularning barchasi ko'z oldimizda, kundalik hayotimizda yuz bermog'da. Shunday ekan, korruptsiyaga qarshi kurashishga faqat mas'ullarning ishi deb qarashimiz noto'g'ri, albatta.

Zero, jinoyatchini qamash bilan ish poyoniga yetib qolmaydi. Bu illatga qarshi kurashish, noxush holatlarning oldini olish uchun, avvalo, oila, mahalla, bog'cha, maktablarda ta'lim-tarbiya ishlariga alohida e'tibor qaratishimiz shart. Farzandlarimiz bolaligidan boshlab halollik, to'g'rilo'zlikka, o'zganing haqi, mulki, omonatiga xiyonat qilmaslikka odatlanib, mehnat va izlanish, shukrona hissi bilan yashash



Tursunxo'ja ABDURAHMONOV,
“Nuroni” jamg'armasi Rishton tumani bo'limi raisi,
“Do'stlik” ordeni sohibi

kabi hayotiy haqiqatlarni anglab voyaga yetishi kerak.

Bu qanday amalga oshiriladi? Albatta, mutolaa bilan. Mutolaa dunyoqarashimizni kengaytiradi, atrofda bo'layotgan voqea-hodisalarni teran anglashga undaydi. Bu borada aniq chora-tadbirlar belgilab olingani ham ayni muddao.

Endi maktab muallimlari “Tarbiya” fani doirasida o'g'il-qizlarimizga halollik, bironing haqiga xiyonat qilmaslik kabi ezgu g'oyalarni sodda tilda tushuntirib boradi. Oliy ta'lim muassasalarida esa talabalarimiz korruptsiyaga qarshi kurashish loyihalari, startap va innovatsion tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash tizimi yo'lga qo'yilayotgani bu boradagi ishlar samaradorligini yanig' bosqichga olib chiqadi.

Shu o'rinda bir mulohaza bildirmog'chiman. Farzand va nabiralarimiz poraxo'rlik, tamag'irlik, yulg'ichlik, tekim daromad topish, hamma narsadan manfaatini ustun qo'yish bilan bog'liq zarari oqibat va kirdikorlarni maktab darsliklaridan o'rin olgan kichik hikoyalar, qissalar orqali anglab borsa, illatning oqibatlarini his qilsa, maqsadga muvofiq bo'lardi.



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

KATTA IQTISODIY SAKRASH

BOSH VAZIFA – TENGSIZLIK VA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH



Bugun dunyo ahli chuqur transformatsiya davrida yashamoqda. Xalqaro keskinlik tobora kuchaymoqda. Tizimli iqtisodiy inqiroz belgilari namoyon bo'lyapti. Shunday murakkab sharoitda O'zbekistonda "Inson manfaatlari — hamma narsadan ustun" degan tamoyil asosida islohotlar izchil amalga oshirilayotgani va muayyan natijalarga erishilayotgani diqqatga sazovor.

yangi bosqichga olib chiqdi. Qolaversa, bu iste'mol bozorida ichki talabni ham rag'batlantirib, butun mamlakat iqtisodiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Ish haqi va pensiyalarni to'lashga zamonaviy raqamli texnologiyalar joriy etilgani esa ushbu jarayonning shaffof va samarali bo'lishini ta'minlashda muhim qadam bo'ldi. Mehnatga haq to'lash qonun bilan qat'iy tartibga solinib, har bir chekkikan kun uchun ish beruvchi kompensatsiya to'lashi yo'lga qo'yildi.

Ish haqi va pensiyalar miqdoridagi ko'tarilish tufayli kambag'allikni kamaytirish va umumiy farovonlikni yaxshilash jarayoni ham uzviylik kasb etmoqda. Bu esa, o'z navbatida, iste'molchi faolligi ortishiga, ijtimoiy barqarorlik mustahkamlanishiga olib keladi.

Mamlakatimizda pensiya va maoshlar miqdorini oshirishdan tashqari, mehnat sharoitini yaxshilash hamda yangi ish o'rinlari ochishga ham e'tibor qaratilmoqda. Bu fuqarolarga qo'shimcha daromad keltirish bilan birga, iqtisodiyotni rivojlantirish, mehnat unumdorligini oshirish va xalqaro miqyosda



nazardan, ish haqi va pensiyalarni mustazam hamda yetarli darajada oshirish davlat ijtimoiy siyosatining asosiy elementidir.

Aholining turmush sifatini yaxshilash, iqtisodiy-ijtimoiy farovonlikni yuksaltirishda xususiy tadbirkorlik muhim o'rin tutadi. Shu ma'noda, tadbirkorlik subyektlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratilayotgani, imtiyoz va preferensiyalar taqdim qilinyotgani innovatsion faollik oshishiga xizmat qilmoqda. Joriy yilda ishlabaruvchilarga yanada ko'proq qulayliklar muhayyo etiladi. Bu 5 milliarddan ziyod yurdoshimizning bandligini ta'minlashda juda qo'l keladi.

Bugun yurtimizda inson manfaati ustuvorligi yo'lida hayotga tatbiq qilinayotgan islohotlar negizida jamiyatda tengsizlik va kambag'allik xavfini yumshatish, fuqarolarning bandligini ta'minlash, daromadini oshirish, har bir insonning munosib turmush kechirishi uchun shart-sharoit yaratish maqsadlari turibdi. O'z salohiyati, layoqati hamda intilishi bilan davlat va jamiyat hayotida faol ishtirok etayotgan kishilarning daromadi ham, ro'zg'oridagi barakayu ishidagi unumdorlik ham havas qilari darajada bo'lishi muqarrar.

Xullas, "O'zbekiston — 2030" strategiyasi mamlakatimizni barqaror va inklyuziv rivojlanishini ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan va O'zbekistonning uzoq muddatli rivojlanish yo'nalishlarini belgilaydi. Unda turli sohalaridagi islohotlar, iqtisodiy o'sish, ta'lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimlarining takomillashirilishi, ekologik barqarorlikni ta'minlash va davlat boshqaruvi zamonaviylashtirish kabi maqsadlar ko'zda tutilgan.

Strategiya ko'ra, aholiga tibbiy xizmatlarni yanada yaqinlashtirish borasidagi islohotlar natijasida 350 ming nafar diabet va 1,5 million yurak-qon tomir kasalligi bor

bemor davolash bilan to'liq qamrab olinadi. Go'daklarda irsiy kasalliklar bo'yicha selektiv skrining tekshiruvlar qamrovi kamida 50 foiz oshiriladi. Natijada bolalar o'rtasida irsiy kasalliklar 2 barobar qisqaradi. Kelgusi yillarda go'daklarni mikronutrient kukuni, yosh bolalarni gelmintoz profilaktikasi bo'yicha maxsus preparatlar, yod preparati, xotin-qizilarni polivitamin, temir va foliy kislotasi bilan bepul ta'minlash ishlari rivojlantiriladi.

Natijada yuqumli va yuqumli bo'lmagan kasalliklar tarqalishini 20 foiz qisqartirishga erishiladi. Bu davrda tibbiy yordamga muhtoj aholining 70 foiz murojaatini birlamchi bo'g'inning o'zida hal qilinishi yo'lga qo'yish rejalashtirilgan.

Yana e'tiborga molik bir jihat. Mamlakatimizni rivojlantirishga qaratilgan strategik hujjatlar va olib borilayotgan islohotlar samarasi o'laroq, so'nggi 5-yil ichida bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrovi 27 foizdan 72 foizga yetdi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni 5211 tadan 29 ming 420 taga oshdi. Mazkur sa'y-harakatlar "O'zbekiston — 2030" strategiyasining tegishli maqsad va ko'rsatkichlarida ham aks etgan. Unga muvofiq, maktabgacha ta'lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish hamda qamrov darajasini 100 foizga yetkazish ko'zda tutilgan.

E'tirof etish kerakki, o'tgan yillarda xalq bilan muloqot qilish, inson dardi, muammolarini samarali, ijobiy va tezkor hal qilish bo'yicha yangi tizim yaratildi. Xususan, davlat organlarining aholi bilan bevosita muloqoti yo'lga qo'yildi. Bu, odamlarning davlat organlariga nisbatan munosabatini o'zgartirmoqda, faollik, islohotlarga bo'lgan ishonchini kuchaytirmoqda. Eng muhimi, fuqarolar tomonidan davlat organlari oldiga masalaga qo'yish imkoniyati ortib bormoqda. Ana shu sa'y-harakatlar davomi sifatida

"O'zbekiston — 2030" strategiyasini amalga oshirish bo'yicha Respublika komissiyasi tashkil etildi. Komissiya strategiya doirasidagi islohotlarga tadbirlarning aholi tomonidan bildirilgan fikr va tashabbuslar asosida sifatlil amalga oshirilishi, belgilangan ko'rsatkichlarga erishilishini nazorat qilib boradi.

Natijada O'zbekiston yuqorida qayd etganimizdek, "daromadi o'rta darajada yuqori bo'lgan davlatlar" qatoriga kiradi. Ushbu maqsadlar yo'lida iqtisodiy qudratimiz asosi bo'lgan eng ilg'or texnologiyalarga asoslangan yuqori qo'shilgan qiymatga ega sanoat tarmoqlari rivojlantiriladi. Buning uchun keyingi yillarda strategik mega-loyihalarga ishga tushiriladi. Iqtisodiyot energiya sig'imkorligini oshirish, bir birlik energiya resursi evaziga 2 karra ko'proq qiymat yaratish vazifasi belgilangan. Bu kelgusida energetika sohasi ham jadal rivojlanib, aholi va sanoatni barqaror energiya bilan ta'minlanishini, toza energiya manbalarini kamida 54 foizga yetkazishni bildiradi. Buning uchun, albatta, yuqori energiyasig'imkor sohalar, xususan, raqamli texnologiyalar, fintex, moliyaviy xizmatlar kabi yangi tarmoqlarni rivojlantirish zarur. Xususan, IT sektoridagi o'zgarishlarni ko'radigan bo'lsak, hozir soha qariyb 1 milliard dollarlik mamlaralni zabt etgan bo'lsa, kelgusi 5-yilda ushbu ko'rsatkichni kamida 5 karra oshirish istiqbolli mavjud.

Aholi daromadlari o'rtasidagi keskin tafovutlar oldini olish, hududlarda barqaror ish o'rinlarini yaratish, tadbirkorlik harakatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash orqali yangi o'rta sinf qatlamini kengaytirish, eng asosiysi, aholi farovonligini ta'minlash ham muhim yo'nalishlardan hisoblanadi. Shu bilan birga, yoshlar orasida ishsizlik darajasini 14 foizdan 6 foizga kamaytirish ulkan vazifalardan. Ushbu maqsadlarda 2030-yilga qarab har bir hududning demografik, tabiiy, infratuzilmaviy xususiyatlariga ko'ra, mehnat bozoriga ilk marotaba kirib kelayotgan 1 million yosh munosib daromad manbaiga ega bo'lishi uchun har tomonlama sharoit yaratiladi.

Taraqqiyot strategiyasida esa hududlarni kompleks rivojlantirish, urbanizatsiya strategiyasini bajarish, aholini arzon uy-joy bilan ta'minlash darajasini oshirish bo'yicha ham bir qator ishlar olib borilishi maqsad qilingan. Jumladan, "Yangi O'zbekiston" massivlari soni 100 taga yetkazilishi, shuningdek, tuman-shaharlarning bosh va master rejalarini 3 toifali — renovatsiya, rekonstruksiya hamda konservatsiya zonalarga ajratib, soddallashtirilgan tartibda ishlab chiqish amaliyoti joriy etiladi.

Biz o'tgan davrda yetarlicha bilim va tajriba ortirdik. Ilgari o'n yillar kerak bo'lgan yo'lni qisqa muddatda bosib o'tishni o'rgandik. Qisqasi, islohotlarning uzviyligi va davomiyligi tufayli O'zbekiston, albatta, yuksak rivojlangan davlatlar qatoridan munosib joy egallaydi. Bugungi islohotlar ushbu katta iqtisodiy sakrashga zamin yaratmoqda.

Ibrohimjon FOZILJONOV, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Bir paytlar aholi orasida kambag'al qatlam mavjud bo'lsa-da, bu xususda lom-mim deyilmadi. Prezidentimizning siyosiy irodasi tufayli jamiyatimizda kambag'allar borligi nafaqat tan olindi, balki uni qisqartirish bo'yicha alohida tizim joriy qilindi.

Yurtimizda kambag'allikni qisqartirish uchun barcha tuman sharoitiga ko'ra, 5 ta toifaga ajratilib, tabaqalashtirilgan yengilliklar berildi. Aholida tadbirkorlik ruhini uyg'otish, kasbga tayyorlash va ish o'rinlarini ko'paytirishga qaratilgan kompleks vazifalar ijrosiga kirishildi. Ezgu niyat va ezgu amallar o'z natijasini ko'p ham kutirgani yo'q. Yurtimizda kambag'allik darajasi 2024-yil yakuniga ko'ra, 11 foizdan 8,9 foizga kamaydi. Bandlik dasturlari tufayli 719 ming kishi kambag'allikdan chiqarildi.



Baholash Jahon banki bilan hamkorlikda amalga oshirildi va xalqaro hisoblash uslubiga asoslandi. Ushbu metodika bo'yicha yil davomida butun mamlakatdagi uy xo'jaliklari byudjeti o'rganilgan.

Ish haqi va pensiyalar tizimida ham keskin ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. Bu haqda so'z borganda, minglab emas, millionlab inson hayotiga daxldor masala davlatimizning doimiy e'tiborida ekanini chuqur anglaymiz. Ahamiyatli, 2016-yildan boshlab fuqarolarning moliyaviy farovonligini oshirishga qaratilgan jadal va tizimli chora-tadbirlar ana shu millionlab inson hayotini yaxshi tomonga o'zgartirayotgani hayotiy haqiqat. Pensiyalar va ish haqi o'sishi 4,5 milliarddan ziyod pensioner va 2 milliarddan ziyod byudjet tashkiloti xodimlari farovonligini

raqobatbardoshlikni ta'minlashga xizmat qilayapti.

Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish sohasini yangilash iqtisodiy siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biriga aylandi. Bu esa, o'z navbatida, aholining katta qismi — yoshlar uchun ish o'rinlarini yanada jozibador qilish, mehnat migratsiyasiga qarshi kurashishda muhim omil bo'layotir. Ijtimoiy infratuzilma, jumladan, sog'liqni saqlash, ta'lim va uy-joy qurilishi ta'minlangani ham aholi turmush darajasini yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

Shu sohalarining rivoji fuqarolar daromad oshirish bilan bevosita bog'liq bo'lib, farovon, istiqbolli jamiyatni shakllantirishda katta ahamiyat kasb etadi. Ayni chog'da aholining real xarid qobiliyatini pasaytiradigan inflyatsiya jarayonini ham hisobga olish muhim. Shu nuqtai

"Dolzarb bir oylik" safarbarligi

HAMMASI MIKROKO'KATDAN BOSHLANDI..

Nukuslik Gulzar Toreniyazova bugungi yutuqlari sababini aynan qiyinchilikda deb biladi. Chunki har bir muammo yoki tashvish unga ulkan saboq bo'lgan. Ularni hal qilish uchun turli yechimlar izlagan, qarorlar qabul qilgan. Ayniqsa, ko'pchilikning hayotida buriilish yagan pandemiya qahramonimizga murakkab vaziyatlarga moslashishni o'rgatdi.

Muntazam mikroko'kat (ikki-uchta bargi chiqqan vaqtgacha) yeyishga yaroqli o'simliklar iste'mol qilib turish yurak-qon tomir, hazm qilish, asab tizimi, umuman inson sog'lig'iga ijobiy ta'sir etishini internetda o'qigan Gulzar opa mikroko'kat yetishtirish haqida o'yilay boshlaydi. Ayniqsa, bunday ko'katlar qarish jarayonini sekinlashtirishi, teri, timoq va soch holatini yaxshilashni bilgach, ishga astoydil kirishdi. U ayni faoliyatga doir ma'lumotlar bilan tanishib, unchalik qiyin emasligini tushunadi. Yelim konteyner, torf, suv purkagich va urug'larni tayyorlab ekadi. Ikki haftada birinchi hosilni oldi.

O'sha vaqtlar mijozlar bilan ishlashda ancha qiyinlangan. Chunki bir-birimizni tushunish qiyin bo'lgan. Bozorni puxta o'rganmaganimiz uchun ba'zi mahsulotlar savdosida qiyinlik. Yaxshi natijaga erishish uchun o'ziga yarasha ilmiy-amaliy bilim kerak ekan. Shu sabab ko'p-lab xatolar qildik. Masalan, muhiti nazorat qilish va yorug'lik sharoitiga mos yer tanlash oson bo'lmadi. Ammo chekinmadik, asta-sekin kamchiliklarni tuzatib, ishning sir-asorini tushunib bordik. Hozir otquloq, ismalog, rayon, yapon

karami (mizuna) kabi 30 dan ziyod mikroko'kat yetishtiryapmiz, — deydi tadbirkor.

Gulzar opa urug'larning sarasini ekadi. Ko'proq Italiyada tayyorlangan urug'larni Rossiyadagi mikroko'kat yetishtiruvchilardan sotib oladi. Aytishicha, mahalliy urug'lardan ham foydalansa bo'ladi, biroq import qilinadigan urug'larning sifati yaxshiroq. Unuvchanligi 95 foiz. Mahalliy urug'larda esa bu ko'rsatkich 60 foizgacha. Bitta yelim idishga o'simlik turiga qarab 0,1 grammdan 30 grammgacha urug' kerak bo'ladi. Otquloq, rayon, limon balzami, sho'radoshlar (amarant) mansub o'simliklar kabi mikroko'katlar urug'i 0,1 grammdan, karam kabilarniki 2-3 grammdan, no'xat urug'i 30 grammdan ekiladi. Konteynerda o'sish muddati 7-21 kun. Sovitkichda saqlash muddati esa 14 kungacha. Nega sovitkichda saqlash kerak, deysizmi? Chunki

mikroko'katlar uchta barg chiqqanidan keyin iste'molga tayyor bo'ladi. Ayni shu holatda ular eng foydali kaliy, magniy, temir va kalsiy kabi moddalar bilan to'yinadi. Shu bois, ko'katlar ko'p o'smasligi kerak. Shuningdek, mijoz ham yashnab turgan, barra mahsulotni olishni xohlaydi. Darvoqe, qahramonimiz yetishtiryotgan ko'katlarni mijozlar asosan, rangi va ko'rinishiga qarab xarid qiladi. Zero, mikroko'katlar yashil, qizil, sariq, siyohrang kabi turfa tusda bo'ladi. Qizil tuslilari ekotik bo'lgani uchun bozori chaqqon. Shuningdek, no'xat, rediska, ismalogga ham buyurtma ko'p. Tannarxi 7-8 ming so'mga aylanadigan bitta konteynerdagi mikroko'kat 15 ming so'mdan so'zlash ham oyiga 5 million so'mgacha bo'lgan daromad kelib turibdi. Bu yog'iga organik mahsulotlarga ehtiyoj ortishini hisobga olsak, daromad ikki-uch barobar ortishi ham mumkin. Chunki ushbu turdagi mikroko'katlar organik mahsulot ekan, to'g'ri ovqatlanishda muhim o'rin tutishini bilganlar allaqachon kundalik ozuqaviy ratsioniga kirirgan. To'g'ri, kimdard mikroko'katga nisbatan allergiya yoki boshqa tibbiy muammo bo'lishi mumkin. Ularni iste'mol qilishdan oldin shifokor bilan maslahatlashish kerak. Bu haqda Gulzar opa o'zi o'tayotgan mahorat darslarida batafsil tushuncha berib kelaypti. Chunki yuqorida aytilganidek, odamlar hali mikroko'katlarning foydasini tushunib yetganicha yo'q. Qolaversa, hamma ham restoranda taom tanovul qilavermaydi. Uy sharoitida esa asosan, shivit, kashnich kabi ko'katlar ishlatiladi. Shuning uchun ham Gulzar opa boshchiligidagi kichik jamoa o'z oldiga onlayn sotuvni yo'lga qo'yish, ijtimoiy tarmoqlardagi targ'ibotni kuchaytirish va hamkorlar bilan ishlash ko'lamini kengaytirish maqsadini qo'lyagan.

Gulzar Toreniyazova loyihasi doirasida 3 kishini doimiy ish bilan ta'minlagan. Shuningdek, ma'muriy va qo'shimcha vazifalar



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

uchun yana 2 kishi jalb etilgan. Faoliyat kengayishi bilan ish o'rinlari soni yanada ortishi mumkin. Loyiha doirasida 2023-yil yozida barcha zarur texnologiya va uskunalar xarid qilindi. Biroq bu bilan cheklanib bo'lmaydi. Zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish va yangi mikroko'kat turlarini yetishtirish Gulzar opaning rejasidan joy olgan. Bunga hozirgi quvvatni oshirish orqali erishiladi, albatta. Mikroko'kat yetishtirish bo'yicha yoshlar va ishsizlar uchun malaka oshirish kurslarini tashkil qilishdek ezgu niyat esa, nafaqat ish o'rinlari ochish, balki sohani rivojlantirishga ham yordam beradi.

Yana bir muhim jihat shuki, qahramonimiz organik materiallardan samarali foydalanish va chiqindilarni qayta ishlashni ham yo'lga qo'yarmoqchi. — Kelajakda mikroko'kat yetishtirishni nafaqat biznes, balki ekologik mas'uliyatni his qilishga undaydigan ijtimoiy yo'nalishga aylantirishni maqsad qilganmiz, — deydi Gulzar Toreniyazova.

Nukusda o'tkazilgan O'zbekistonda iqlim o'zgarishi va "yashil" texnologiyalar sohasidagi ayollar loyihalari uchun startap akseleratorining

ilkl taqdimotida Gulzar opa "Mikroyashillar" ("Microgreens") loyihasi bilan ishtirok etdi. Bu orqali u o'simliklarning ozuqaviy moddalarga boy "mini versiyalari"ni yetishtirish va sotish yo'llarini ko'rsatib berdi. Uchta eng yaxshi loyiha orasida "Mikroyashillar" loyihasi ham bor ekan g'oya egasiga 21,5 million so'm sarfomay keltirdi. "O'zbekistonda yashil texnologiyalar sohasida ayollar startaplarini rivojlantirishni jadallashtirish" nomli mazkur loyiha ko'plab ayollarning startap g'oyalari amalga oshishiga ko'maklashyapti. Ayniqsa, sog'lom turmush tarzi, organik toza mahsulotlarga e'tibor kuchaygan hozirgi davrda mavzuga doir yangi yondashuvlarga ehtiyoj oshmoqda.

Gulzar Toreniyazova ham sog'lom turmush tarzini targ'ib etishga o'z hissasini qo'shish niyatida. Shu bois, boshlagan ishi kengayib, Orolbo'y xalqaro innovatsiya markazidan joy olganidan baxtiyor. Yaqin kelajakda u bundand nafuzli taqdimot va yirik loyihalarda ishtirok etib, barra ko'kat yetishtirib, barakali biznes egasi bo'lish imkonligini isbotlaydi.

Munojat MO'MINOVA, "Yangi O'zbekiston" muxbiri



Dolzarb mavzu

YOSHLARNING KREATIV FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH — ASOSIY VAZIFA

Ta'lim tizimini modellashtirish, pedagogik jarayonni modernizatsiyalash, o'quv predmetini metodik loyihalashtirish va dasturdagi fanlarni o'qitishda raqamli texnologiyalarni joriy etish hamda turli zamonaviy kreativ yondashuvlarni rivojlantirish dolzarb masalalardan. Kreativ faoliyatni shakllantirish zahirida ilmiy-intellektual salohiyatli, raqobatbardosh, barkamol shaxsni tarbiyalashdek mas'uliyatli vazifa mujassam.

Shuni inobatga olgan holda oliy ta'lim muassasalarida ma'ruza, amaliy mashg'ulotlarni o'tish jarayonida pedagogik-metodik imkoniyatlardan foydalanish, tashabbuskor, kuchli pozitsiyaga ega, malakali mutaxassislarni tarbiyalash, innovatsion salohiyat va istiqbolli kreativ faoliyatni ishlab chiqishning ilmiy-nazariy asoslarini yaratib, amaliyotga tatbiq qilish juda muhim.

Pedagogik jarayonda talabalarining kreativ faoliyatini rivojlantirish, o'quv jarayoni bilan bog'liq holda tahlil qilish va voqealarni bilish, korreksiyalash, yangi mavzularni mukammal egallash ko'nikmasini hosil qilish katta ahamiyatga ega. Kreativ faoliyat samaradorligini ta'minlashda yuqori darajadagi idrok, keng qamrovli kognitivlik, refleksiv, tanqidiy, tahliлий, mantiqiy, ijodiy fikrlash, fanlararo integratsiyalashuv asosida takomillashib borgan bilimlar yig'indisi hamda ma'lumotlar bazasi dinamikligi yuzaga keladi.

faoliyat orqali kasbiy-kommunikativ muloqotni o'rgatishning ilmiy prinsiplarini tatbiq qilish jarayonini loyihalashtirilgan holda izchil va muntazam tashkil etish, yangi rejallashtirilgan g'oyalarni loyihalashtirishda ijtimoiy, ilmiy, texnik va madaniy bilimlarga e'tibor qaratish talab qilinadi.

Ilm-fan taraqqiyoti, innovatsiyalarning barcha sohaga kirib kelishi, ta'limda axborot hajmi keskin ko'payishi, o'qitish tizimining shakllanishi va mazmungan boyishi talabalarda kreativ tafakkurni shakllantirish talabini qo'yimoqda.

Kreativlikka asoslangan faoliyat o'quv jarayonini o'zgartiruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. O'quv materiallari mazmunining uzluksiz takomillashib borishi, o'quv predmetlari tarkibining yangilanishi talabalardan ta'lim jarayoniga ijodiy yondashgan holda o'qitishning yangi metod va texnologiyalarini izlab topish va ijodiy

Kreativ faoliyat jarayoni ta'limiy maqsad, vazifa, pedagogik-metodik tamoyillar, zamonaviy yondashuvlar, pedagogik shart-sharoitlar, mazmun, shakl, vositalar, mezon va natijalar asosida takomillashadi. Binobarin, universitetda tadqiqotchilar tomonidan kreativ faoliyatni rivojlantirish bo'yicha pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori hamda pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun izlanishlar qilinadi. Badiiy-adabiy kechalar, bayram tadbirlari, muzey va teatrlarga tashriflar uyushtirilgan, tanlovlar tashkil etilgan, talabalar turar joylarida tanliq olimlar, shoir va yozuvchilar bilan suhbatlar qilinadi. Ayniqsa, 21-oktabr, 8-mart, 21-mart kunlari arafasida talabalar bilan bayramlar o'zgaracha nishonlanadi. Shuningdek, insholar tanlovi o'tkazish natijasida talabalarining og'zaki va yozma savodxonligini oshirish bilan birga, kreativ fikrlashi sinovdan o'tkaziladi. Bu kabi tadbir, tanlov, suhbatlarda qatnashgan yoshlarda ilm egallashga qiziqish, ertangi kunga ishonch ortadi. Buyuk siymolar bitgan asarlar tahlilidan esa odamiylik, tirishqoqlik, mehnatsevarlik, mag'rurlik kabi tuyg'ular rivojlanadi. Kreativ faoliyat natijasida olingan nazariy, amaliy bilimlarni kasbiy faoliyatda qo'llash uchun bu yondashuv poydevor vazifasini bajaradi.

Talabalarda kreativ faoliyatni rivojlantiruvchi omillar mavjud. Ta'limning mazmuni, maqsadi, shakl va usullarini o'rganishga imkon yaratish; talaba shaxsining o'ziga xosligi, individualligi bilan ishlash; kreativlik jarayonida motivlardan unumli foydalanish; ijodkorlikning asosiy qiymat darajasiga turli ijodiy natijani ko'zlovchi ta'sir qilish; o'quv jarayonida keng qamrovni unumdorlikka xos ijodiy muhit yaratish; asosiy maqsadlar barobarida bahs-munozaralar o'tkazish shular jumlasidan.

O'quv dasturlarida aks ettirilgan ta'lim mazmuni o'qitishni rivojlantirishning hal qiluvchi omilidir. Shuning uchun rivojlanish muammosini hal qiladigan bunday ta'lim mazmunini turli yondashuv va metodik ta'minot orqali loyihalashtirish katta ahamiyatga ega.

Zamonaviy o'qitish tizimi bilim olishda faol mavqega ega bo'lgan va dars jarayonida ishtirok etadigan o'qitish usullaridan foydalanishni hamda uni amalda qo'llay olishni o'z ichiga oladi.

Talabalarda kreativ faoliyatni muntazam rivojlantirish ulardagi kompetensiyaviy, fanga oid bilim, ko'nikma va malaka kengayishiga, insoniy fazilatlarining rivoj topishiga xizmat qiladi. Kreativ faoliyatning uzluksiz rivojlantirilishi ta'lim-tarbiyaning yaxlit barqarorlashuvi, ilm olishning ustuvor vazifa ekanini anglashga yo'naltiradi. Shunday ekan, talabalarimiz yuksak bilimli, xalqaro miqyosdagi tengdoshlari bilan har tomonlama raqobatlasha oladigan intiluvchan, ijodiy va ilmiy tafakkurga ega, teran fikrli, vatanparvar, insonparvar, xalqparvar bo'lishi kerak.

G'ofur ABDILAKIMOV,
Nizomiy nomidagi
Toshkent davlat pedagogika universiteti
o'quv-uslubiy boshqarmasi boshlig'i,
professor

Mamlakatimiz aholisining 60 foizini yoshlar tashkil etadi. Yoshlarga oid davlat siyosatini izchil yuritish, yosh avlodni har tomonlama yetuk va barkamol, yuqori intellektual salohiyatli, o'z qat'iy pozitsiyasiga ega, amalga oshirilayotgan islohotlarga hamda vatan kelajagi uchun befarq bo'lmagan shaxs sifatida tarbiyalash O'zbekistonda dunyo hamjamiyatidagi mavqegini yanada oshirmoqda.

TA'LIM — ENG SAMARALI YECHIM

Prezidentlik lavozimiga kirishgach, Shavkat Mirziyoyev tomonidan imzolangan ilk hujjat 2016-yil 14-sentabrda "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonun ekanida ham katta mazmun-mohiyat muassam.

E'tiborlisi, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning alohida bobida "Oila, bolalar va yoshlar", deb nomlandi. Davlat yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlariga sodiqlik, xalqning boy madaniy merosidan faxrlanish, vatanparvarlik tuyg'ulari shakllanishiga g'amxo'rlik qilish ham muhrlandi. 78-moddaning to'rtinchi bandida bunday deyilgan: "Davlat va jamiyat bolalarda hamda yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlariga sodiqlikni, mamlakatidanda hamda xalqning boy madaniy merosidan faxrlanishni, vatanparvarlik va Vatanga bo'lgan mehr-muhabbat tuyg'ularini shakllantirish to'g'risida g'amxo'rlik qiladi".

Davlatimiz rahbarining yoshlar bilan joriy yil 14-fevraldagi muloqoti ham ana shu yuksak e'tibor namunasidir. Yig'ilishda yoshlar ishsizligiga barham berish masalasi alohida tilga olindi. Kambag'allikdan chiqishning eng samarali yechimi ta'lim ekaniga urg'u berildi. Shu bois, bunday oilalar farzandi foizsiz ta'lim krediti, qo'shimcha grant, shartnoma to'loviga yordam orqali o'qishga rag'batlantirildi. Bilimga chanoq, lekin oilaviy sharoit og'ir yoshlarni xorijda o'qitish bo'yicha yangi tizim — "Yorqin kelajak" loyihasi joriy etildi. Yoshlar agentligi xorijda o'qiyotgan har bir talabaga bosh-qosh bo'ladi. Bilimni yig'it-qizlar dunyoning "Top-100" oliygothlariga yuborilib, o'qish va yashash xarajatlari qoplab beriladi. Chet elda o'qib kelganlar milliy kadrlar zaxirasiga kiritilib, davlat organlariga tanlovsih ishga olinadi.

Bugungi kunda O'zbekiston yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish, ularning iqtisodiy faolligini oshirish va barqaror ish o'rini yaratish yo'nalishlarida keng qamrovli chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda.

O'zbekistonda yoshlar ishsizligi muammosi qator omillar bilan bog'liq. Bular orasida kasb-hunar va oliy ta'lim tizimining mehnat bozori talablariga to'liq mos kelmasligi, ish beruvchilar yosh mutaxassislarni tajribasiz hisoblab, ish taklif qilishdan cho'chishi, mahalliy tadbirkorlik

muhti rivojlanishida to'siqlar, raqamli texnologiyalar va innovatsion bilimlarga ega mutaxassislar yetishmovchiligi kabi muammolar yillar davomida shakllanib, to'planib qolgan edi. Endi esa yoshlarni ish bilan ta'minlash borasida qat'iy chora-tadbirlar ko'rilmoqda, bu ishlar keng ko'lmda davom ettiriladi.

O'tgan yillardagi islohotlar natijasida ayol-qizlarning oliy ma'lumotli bo'lishi uchun qator sharoitlar yaratildi. Ular uchun alohida kvotalari, shuningdek, magistraturada o'qishga sarflanadigan xarajatlar davlat tomonidan qoplanishi yo'lga qo'yildi. Natijada moliyaviy muammolar tufayli ta'lim olishdan mahrum bo'lib kelgan yoshlarimizning hayoti tubdan o'zgardi va ularga kelajakda yurtimiz uchun qimmatli kadrlar bo'lish imkoniyati yaratildi.

Ish topishda xorijiy tillarni bilish juda muhim. Shu bois, chekka hududlarda chet tillarga ixtisoslashgan o'quv markazlari ochgan malakali yoshlarga 120 million so'mgacha foizsiz sudra berilishi, xususiy o'quv markazlarida xorijiy tillarni o'rganadigan yoshlarga to'lovlar "2+6" oy shaklida qoplanishi yig'it-qizlar uchun yana bir imkoniyatdir.

Yurtimizdagi nufuzli oliygothlardan biri — Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti yoshlar bandligini ta'minlash yo'nalishida samarali ish olib borayotir. Xususan, amaliy bilimlarga asoslangan o'quv dasturlari orqali universitetda talabalarga nazariy bilim bilan birga amaliy tajriba berish uchun zamonaviy laboratoriyalar, IT parklar va startap markazlari tashkil etilgan. Universitet yirik kompaniyalar bilan hamkorlik orqali talabalarining ishlab chiqarish amaliyotini o'tashiga imkon yaratmoqda. Talaba-yoshlar innovatsion g'oyalarni ilgari surish uchun grant dasturlarida ishtirok etmoqda.

Yoshlarning kelajakda barqaror ish o'rini yaratishga ega bo'lishi uchun sharoitlar yaratish, ularni qo'llab-quvvatlash belgilangan vazifalar, ko'zlangan marjalarga erishishimizning muhim kalitidir.

Ravshan JO'RAYEV,
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent



USHBU MAQOLANI QORAQLPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



Kreativ faoliyat rivojiga ustuvor ahamiyat qaratish talabalarining ijodiy fikr bildirish uchun zaruriy strategiyasini bilish imkonini beradi. Didaktik-metodik o'quv ta'minotini modernizatsiyalash mexanizmlariga proporsional ko'rinishda yaratish talabalarining kreativ yondashuvi samara berishiga ijodiy ta'sir ko'rsatadi. Talabalarda kreativ faoliyatning modernizatsiyalangan shaklini hosil qilish ko'p bosqichli psixologik va pedagogik jarayondir. Bunda o'qitish va o'quv materiallari asosida bilim, ko'nikma hamda malakani hosil qilishning eng samarali innovatsion texnologiyalarini ishlab chiqish, jahon standartlariga mos o'quv-metodik adabiyotlar, zamonaviy darslik bilan ta'minlash, o'quv dasturida belgilangan maqsad va vazifalar mohiyatiga muvofiq keladigan, ilm-fan sohasining zamonaviy tendensiyalari talabalariga moslashtirilgan platformalar yaratish, kreativ faoliyatning infratuzilma rivojiga doir ko'p qirrali funksiyalarni amalga oshirish, bilim hajmi, tizimligi, aniqlikiga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq. Bundan tashqari, bilim olish ko'nikmasini faollashtirish, ijodiy muhit davomiyligini mustahkamlash, kreativ

yondashgan holda qo'llashni talab qiladi. Mazkur jarayonda bugungi kun ta'lim talabidan kelib chiqib, yoshlarda raqobatbardoshlikni ta'minlash zarur.

Talabalarining kreativ faoliyati takomilida fanning eng so'nggi yutuqlari va ilg'or pedagogik tajribalarni ta'lim jarayonida qo'llash birinchi o'rinda turadi.

Kreativ faoliyat borliqini bilish va o'rganishga yo'naltirilgan ongli, maqsadli jarayon bo'lib, uning natijasida jamiyatning moddiy va ma'naviy hayotini yaxshilashga qaratilgan yangi, betakror, ilgari mavjud bo'lmagan g'oyalari yaratiladi. Shu nuqtayi nazardan, kreativlikni inson aql-zakovatining barcha ijodiy sifatini o'zida mujassam etgan, yangilik yaratish bilan bog'liq alohida mustaqil faoliyat deyish o'rindir.

Pedagogik-psixologik tadqiqotlar va ilmiy adabiyotlar tahliliga ko'ra, kreativlik ijodkorlik tushunchasi bilan bog'liq holda talqin etiladi. Kreativ faoliyatda talabalarining ixtirochilik qobiliyati, keng fikrlashi, teran tafakkur qilishi, kognitiv-kommunikativ kompetensiyalari rivojlanib boradi.

Sayyohlik

Yurtimizning qadim shaharlari — Samarqand, Buxoro, Xiva, Qarshi va Termizga o'tuvchi sayyohlar Jizzaxda albatta, to'xtab, dam olib o'tadi. Respublikamizning barcha shaharlari va qo'shni davlatlarni bog'lovchi avtomobil va temir yo'l mamlakatimiz markazida joylashgan ushbu viloyat orqali o'tishi hududda sayyohlarni rivojlantirishning muhim imkoniyati hisoblanadi.

Markaziy Osiyoning qadim madaniyat maskanlaridan biri bo'lgan Jizzaxda sayyohlarni qiziqitradigan tarixiy arxeologik manzillar ko'p. Hududda 400 taga yaqin madaniy meros obyekti davlat muhofazasiga olingan.

Sayyohlarni qiziqitradigan yana bir jihat — viloyatning noyob tabiati. Jumladan, Nurota va Zomin davlat qo'riqxonalari, Zomin xalq bog'i, Aydar-Amasoy ko'llar tizimi va Qizilqum cho'li ekoturizm ishqibozlari uchun qiziqarli manzillardir. Viloyatda 200 dan ziyod ekoturistik obyektlar, 50 dan ortiq noyob hayvon va qush, mingdan ziyod o'simlik turi mavjud.

Viloyatning sayyohlik tizimida Turkiston tog' tizimlari bag'ridagi eng xushmanzara maskanlardan biri — Zomin tumani alohida o'rin tutadi. Dengiz sathidan to'rt ming metr balandlikda joylashgan, noyob ekotizimga ega bo'lgan Zomin xalq parki va Zomin qo'riqxonasi hududida yovvoyi o'simliklarning 700 dan ziyod, kam uchraydigan va noyob yovvoyi hayvonlarning 150 turi mavjud.

Keyingi yillarda yurtimizning bu tabiiy hududidagi biologik xilma-xillikni muhofaza qilish, hududning sayyohlik salohiyatidan samarali foydalanishda katta ishlar qilindi. Zomin tumani bugun faqat viloyatning emas, respublikamizning eng mashhur turistik hududlaridan biriga aylandi.

MEHMONNING KO'NGLI

Endi bu yerga chet ellik sayyohlar ham kelmoqda. Zomin aeroportida 30 o'ringa mo'ljallangan yo'lovchi terminali foydalanishga topshirilishi tashrif buyuruvchilarga katta qulaylik yaratadi. "Zomin" turistik-rekreatsiya zonasi hududida "Suffa platosi 2400" xalqaro umummaymuyi kurorti va O'rnikli soy majmuasida mijozlarni tashish uchun zamonaviy dizayndagi 36 ta kabinadan iborat, uzunligi 2600 metr bo'lgan dor yo'li ishga tushirilishi ushbu sayyohlik maskani jozibadorligini yanada oshirmoqda.

— Mehmonning ko'ngli nozik bo'ladi, — deydi viloyat Turizm boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari Aziz Egamberdiyev. — Ayniqsa, rivojlangan mamlakatlardan kelayotgan sayyohlar uchun arzimagan noqulaylik ham bu yerga qayta kelmasligiga sabab bo'lishi mumkin. Shuning uchun so'nggi yillarda turistik maskanlarda barcha sharoitlarni yaratishga, viloyatning sayyohlik imkoniyatlaridan samarali foydalanishga katta e'tibor qaratyapmiz. Jumladan, 2024-yilda viloyatda turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha 368 milliard

87 million so'mlik 24 ta investitsiya loyihasi amalga oshirildi. 2024-yilda 19 ta turkumiy faoliyat yo'lga qo'yilib, ularning soni 47 taga yetkazildi. Sayyohlik salohiyati yuqori hududlarda xorijlik va mahalliy mehmonlarni ko'proq olib qolish bo'yicha 5 kunlik yo'nalish — 7 yulduz turizm halqasi ("sayyohlik uchburchagi") ishlab chiqildi. Ekoturizm maskanlari bo'ylab 3-5 kunlik yo'nalishlar yaratildi. 584 o'rinni 28 ta joylashtirish vositasi — mehmonxona, hostel, kemping va oilaviy mehmon uylari ishga tushdi.

Yaratilgan sharoitlar o'z samarasini bermoqda, viloyatga o'tgan yili 452,2 ming xorijlik, 1 million 400 ming mahalliy sayyoh kelib ketdi. Yillik turizm xizmatlari eksporti 65,1 million AQSH dollarini tashkil etdi.

Davlatimiz rahbari 2024-yil 8-10-aprel kunlari viloyatga tashrif davomida hududning madaniy meros maskanlarini bog'lovchi "turizm halqasi" ishlab chiqish va yerdan infratuzilmani yaxshilash bo'yicha aniq topshiriqlar bergandi.



nozik bo'ladi

Shu asosda jami 31 kilometr yo'l, ko'priklar va yo'l o'tkazgichlarni ta'mirlash uchun respublika byudjetidan 10 milliard so'm ajratilib, 12 kilometr shag'al, 7 kilometr asfalt yo'l ta'mirlandi, 12 kilometr joriy ta'mirdan chiqarildi. Sayyohlik inshootlariga olib boruvchi yo'larga 66 ta yo'l ko'rsatkich belgi o'rnatildi va 170 ta sayyohlar qo'nalg'asida Wi-Fi zona tashkil qilindi.

"Turizm qishlog'i", "turizm mahallasi", "turizm ko'chasini" tashkil etish bo'yicha ham qator ishlar bajarildi. Zomin tumanidagi "Turizm mahallasi" maqomini olgan Duoba, G'allaorol tumanidagi Uzunbulog' hamda Baxmal tumanidagi Novqa mahallalarida sayyohlar uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Jizzax shahrida "turizm ko'chasi" tashkil etilib, kafe, fast-food, supermarket, avtoturargoh, piyodalar va velosiped yo'lakchalari, mehmonlar uchun axborot markazi barpo etildi.

— Viloyatimizda turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha 2025-yilda amalga oshiriladigan vazifalar va aniq rejalari belgilab olingan, — deydi Aziz Egamberdiyev. — Joriy yilda maqsadli ko'rsatkichlarga erishish uchun hududda 1 million

xorijlik, 2 million mahalliy sayyoh jalb etilishi mo'ljallangan. 150 million dollar eksport xizmati ko'rsatilib, joylashtirish vositalari soni 297 taga, o'rinarlar 4,7 mingga yetkaziladi. Sohaga 194,5 milliard so'm investitsiya kiritilib, 15 ta turizm loyiha amalga oshirildi.

Belgilangan chora-tadbirlar rejasiga ko'ra, joriy yilda Forish tumanining Aydar-Amasoy ko'llar tizimiga tutash 22 ming gektar yer Amasoy tumaniga o'tkazilib, ushbu hududda Toshkent shahri hokimligi tomonidan turizm yo'nalishida mehmonxonalar va savdo xizmatlari yopiq suv havzasi hamda restoranlar, hunarmandlik, suvenir savdo rastalari, musiqiy favvoralar, qumli plyaj zonasi, ekstremal suv sporti maydonchalari kabi yirik loyihalarni ro'yobga chiqarish hisobiga qo'shimcha 1000 ta yangi ish o'rini yaratiladi.

Turizm salohiyati yuqori bo'lgan Baxmal, Forish va Amasoy tumanlarida zamonaviy sayyohlik majmualari tashkil etiladi. Natijada bu maskanlarga tashrif buyuradigan xorijlik sayyohlar soni 400 ming, mahalliy sayyohlar 700 mingga yetkazilib, 60 million dollarlik turizm xizmatlari ko'rsatish rejalashtirilgan.



SOG'LOM TURMUSH SAHIFASI

YURAK SALOMATLIGINI SAQLASHNING MUHIM KALITI

Aholi orasida yurak-qon tomir kasalliklari bilan kasallanish ortib borayotir. Ayniqsa, bu tufayli yuz beradigan o'lim holati butun dunyoda og'riqli masala bo'lib qolmoqda.



Ekologik muammolar, aholi o'rtasida kamharakatlilik — gipodinamiya, jismoniy va ruhiy zo'riqish, ratsionda hayvon yog'larini ko'p mahsulotlarni haddan ziyod iste'mol qilish natijasida xolesterin darajasi ortishi, chekish va spirtli ichimliklar iste'moli bunda bosh omil sanaladi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatimizda 2024-yilning yanvar-dekabr oylarida qayd etilgan o'limlarning 57,6 foizi qon aylanish tizimi kasalliklari hissasiga to'g'ri kelmoqda. Bu esa mazkur ko'rsatkich o'tgan yillardagidan sezilarli kamayganini ko'rsatsa-da, muammo to'liq yechim topdi, deyshiga hali bir oz erta.

YURAK SALOMATLIGIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR

Yurak-qon tomir kasalliklari har qanday odamga xavf solishi mumkin. Afsuski, bu kasallik yosh tanlamaydi.

Umr ko'rish davomiyligi, uzoq va sifatli hayot yurak mushaklarining barqaror ishlashiga bog'liq. Mutaxassislar yurak salomatligini asrashda to'g'ri ovqatlanish, muntazam jismoniy faollik va ruhiy barqarorlik muhim ahamiyatga ega ekanini ta'kidlaydi. Profilaktik tekshiruvlar, zararli odatlardan voz kechish, stressli holatlardan

qochish, qon bosimi, xolesterin, tana vaznini nazorat qilish va uyqu rejimiga rioya etish ham kasallikning oldini olishda muhim omildir.

Sog'lom turmush tarzini har doim kichik qadamlardan boshlashingiz mumkin. Bu keyinchalik ham jismoniy, ham ruhiy bardamlikka olib keladi. Ko'plab kasalliklar, jumladan, yurak va qon tomirlari bilan bog'liq muammolar rivojlanishi xavfini pasaytiradi, umr davomiyligini oshiradi.

ENG YAXSHI CHORA

Yurak salomatligi mo'tadil, ammo muntazam mashqlarni talab qiladi. Mutaxassislar ta'kidlashicha, jismoniy faollik yetishmasligi yurak mushaklarining kuchsizligi, funksiyalarini bajara olmasligiga sabab bo'ladi. Shu bois, yurak me'yorida ishlashi uchun deyarli har kuni zo'riqmaydigan, yengil mashqlar bajarishni odat tusiga kiritish muhim. Jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish organizmni chinig'itirib, uning xazira imkoniyatlarini oshiradi. Yuklamalar yuqori kaloriya yog'li ovqatlar va o'troq hayotning zararli ta'sirini butunlay bartaraf etadi.

Mashg'ulotlardan keyin qonda xolesterin va qand miqdori kamayadi. Mushaklar jadal ishlashi tufayli qon bosimi mo'tadillashadi. Bularning barchasi jismoniy yuklamalarning yuqori samaradorligi va yurak-qon tomir kasalliklarining oldini oluvchi muhim omil ekanidan dalolat beradi.

Xo'sh, bu haqda mutaxassislarning tavsiyasi va ko'rsatmalari qanday?

Rohatoy DO'SCHANOVA,
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali o'qituvchisi:

— Yoshim 60 da. Shifokor bo'lganim bois, inson salomatligida sog'lom turmush tarzining ahamiyatini yaxshi tushunaman.



Har doim unga amal qilishga intilaman. Ammo hayotning sinovi bo'lsa kerak, ketma-ket stresslarni boshdan o'tkazdim. Qiyin vaziyatlar, hissiy omillar o'z ta'sirini ko'rsatdi. Meni ham qator kasalliklar chetlab o'tmadi. Bir necha bor jarrohlik stoliga yotishimga to'g'ri keldi. Qon bosimim doimiy balandligi sababli qonimda qand miqdori darajasi yuqoriligi aniqlandi. Odatda qandli diabet kasalligining 2-tipi 50 yoshdan oshgan insonlarda ortiqcha vazn, shirinliklar va xamirli taomlarni ko'p iste'mol qilish yoki nasliy moyillik sabab yuzaga keladi. Lekin bu dardga yo'liqishimga yuqorida keltirilgan

omillarning aloqasi yo'q. 3-darajali gipertoniya kasalligi — qon bosimimning doimiy yuqori bo'lishi tufayli shu dard bilan og'ridim. Har safar qon bosimi oshganda tomirlarda spazm bo'ladi. To'qimalarga kislorodga boy arterial qon yetib borishi kamayadi. Shu tufayli qandli diabet yuzaga keladi. Bu men uchun navbatdagi kutilmagan sinov edi. Gipertoniya esa doimiy hamrohimga aylangan.

Kasalliklarni yengish va hayotga qaytishimda jismoniy yuklamalarning ko'magi katta bo'ldi. Faol, serharakat bo'lishdan boshqa choram ham qolmagandi. Har kuni toza havoda 10 ming qadam yurishni odat qildim. Ertalab badantariya bilan shug'ullanaman. Kun davomida suzishga vaqt ajrataman.

Suzish inson organizmidagi barcha tizimlarni mustahkamlaydi, mushak to'qimasini rivojlantiradi, kaloriyalarni yo'qotadi. Chiroyli qomatga ega bo'lishga yordam beradi.

Jismoniy mashqlar orqali organizmda muntazam qon aylanishi va moddalar almashinuvi yaxshilanadi, buning oqibatida yurak-qon tomir tizimi me'yoriy darajada ishlaydi. Shu bilan birga, qo'l-oyoq mushaklarining ishlash qobiliyati ortadi. "Tabiiy tabib emas, shundan o'tkazgan tabiiy" deganlaridek, harakatli yuklamalar ruhiy-emotsional holatga ijobiy ta'sir ko'rsatib, stresslarga qarshi chidamlilikni oshirishini o'z hayotim misolida ko'rdim. Endi umrim har lahzasini qadrlab, yaxshi kayfiyat va shukronalik hissi bilan yashashga harakat qilaman. O'tmishdagi xatolar yoki kelajakka oid qo'rquvlar bugungi kunimga ta'sir qilishiga yo'l qo'yman. Har kuni yuragim bilan gaplashaman. Unga nima kerakligiga "quloq tutaman"...

Jismoniy yuklamalar tizimli bo'lishi zarur. Agar mashqlar ikki-uch hafta davomida bajarilmasa, unda ilgari bajarilgan jismoniy yuklamalar samarasi pasayib ketadi. Bir oy tanaffus qilinsa, samarasi umuman yo'qoladi. Mashg'ulotlar kutilmagan bo'lmasligi kerak, chunki jismoniy tayyorgarlik ko'rmagan odamga bu faqat zarur yetkazishi mumkin.

Yurak-qon tomir kasalliklarining oldini olish uchun jismoniy mashqlarni kuch bilan bajarish shart emas. Siz har doim o'zingiz yoqtirgan mashg'ulot turini tanlashingiz mumkin. Toza havoda sayr qilish, bog'da yoki tomorqada ishlash, velosipedda yurish va suzish yetarli. Bu yuzaga keladigan xavfni sezilarli darajada kamaytiradi. Yurak sog'lig'ini yaxshi saqlash uchun haftasiga 5 marta kamida 30 daqiqa o'rtacha jismoniy faoliyat bilan mashg'ul bo'lish kerak. Bu hayot tarzimga aylangan. Salomatligimni shu usul orqali asrab kelyapman.

TO'G'RI OVQATLANISH, JISMONIY FAOLLIK, RUHIY BARQARORLIK



BALANSLI OVQATLANISH KASALLIKNING OLDINI OLISHDA MUHIM AHAMIYATGA EGA

Yurak-qon tomir kasalliklarining sabablari ko'p, ammo noto'g'ri ovqatlanish bunda yetakchi omillardan biri. Sog'lom ovqatlanish tamoyillariga rioya qilish har bir insonning ongli tanlovi bo'lmog'i lozim. Bunda zarur tavsiyalarni bajarishga shifokor majbur qilishi, oziq-ovqatga nisbatan qat'iy cheklov shart emas, balki to'liq ovqatlanish, ammo kaloriya miqdori sarflanadigan energiyadan oshmasligi, organizm har kuni zarur miqdorda oziq moddalarini, mikro va makroelementlarni olishi muhim. Shifokorlar, ayniqsa, yurak kasalliklarining oldini olishda to'g'ri ovqatlanish beqiyos o'rin tutishini ta'kidlaydi.

Guli SHAYKOVA,
Toshkent tibbiyot akademiyasi
professori:

— Yurak-qon tomir kasalliklarining yuzaga kelishi sabablaridan biri xolesterin darajasi yuqori bo'lishidir.

Bir qancha oziq-ovqat mahsulotlari tarkibida xolesterin bo'lishiga qaramay, (masalan, tuxum, buyrak, ayrim dengiz mahsulotlari va boshqalar) odam qonida



xolesterin miqdorini ko'tarib yuborishga unchalik ta'sir qilmaydi. Biroq to'yingan

yog'lar bu ishni "yaxshi bajaradi". To'yingan yog'lar, asosan, go'sht, ayrim pishiriqlar, kolbasa, qattiq pishloq, tort, undan tayyorlangan konditer mahsulotlari, biskvittli pechenyelar va qaymoq tarkibida juda ko'p.

Ortiqcha vaznga ega, sezizlik kasaliga muhtalo bo'lganlarda tana vazni me'yorida bo'lganlarga nisbatan yomon xolesterin miqdori ko'p, yaxshi xolesterin kam bo'lishi tabiiy. Qonda yomon xolesterin ko'pligi ayrim kasalliklar, jumladan, yuqori qon bosimi rivojlanishiga turki bo'lishi mumkin.

Aksariyat ekspertlar fikricha, yurak-qon tomir kasalliklari rivojlanishiga moyilligi bo'lgan odamlar faqat ovqatlanish ratsionini o'zgartirish bilan ortiqcha xolesterindan qutula olmaydi. Lekin

shunday bo'lsa ham sog'lom ovqatlanish, ya'ni xolesterin darajasini ko'tarishga hissa qo'shadigan mahsulotlarni cheklash salomatlik uchun juda muhim. Bu nafaqat xolesterin miqdorini me'yorida saqlash, balki organizmda kelib chiqishi mumkin bo'lgan boshqa qator muammolarning oldini olishda muhim omildir.

Yurak-qon tomir kasalliklariga sabab bo'luvchi xolesterindan saqlanish uchun tuzsiz non, sabzavotli va yormali, sutli sho'rvalar, go'sht va baliqning yog'siz turi, qiyma kotletlar (suvda yoki bug'da pishirilgan holda), chala pishirilgan tuxum, sut va sut mahsulotlari (qattiq, suzma, qaymoq, yog'siz tvorog), tuzsiz sariyog', har hil bo'tqalar, sabzavot va mevalar, ularning sharbatlari, kisellari, kompotlari tavsiya etiladi.

Achchiq va tuzli dorivorlar, salatlar, konservalar, dudlangan ovqat mahsulotlari, erishi qiyin bo'lgan yog'lar (qo'y, ot

STRESSGA YO'L BERMANG!

Stress fonida yurak urish tezligining oshishi kuzatiladi. Bu holning tez-tez takrorlanishi qon bosimining barqaror o'sishiga olib keladi. Agar odam muntazam ravishda stress ostida bo'lsa, ateroskleroz, qon tomirlari tiqilishi va yurak xuruj rivojlanishi mumkin. Sog'lom turmush tarzining asosiy tamoyillaridan biri bo'lgan ruhiy barqarorlik yurak kasalliklarining oldini olishda muhim omil sanaladi.

Shuhrat ERGASHEV,
tibbiyot fanlari doktori, professor:

— Stress zamonaviy inson hayotining ajralmas qismi. Ruhiy-emotsional holatga salbiy ta'sir ko'rsatish yurak-qon tomir kasalliklari paydo bo'lishiga turki beruvchi xavfli omildir. Qon bosimi ko'tarilishi aksariyat hollarda stress tufayli yuzaga keladi, 80-85 foizgacha miokard infarkti jiddiy emotsional zo'riqish tufayli kelib chiqadi.

Ammo stresslar bo'lgani yaxshi. Chunki u turli salbiy his-tuyg'ularni yengishga o'rgatadi. Lekin tana doimo yuqori darajadagi ogohlantirish holatida bo'lmasligi kerak. Tiklanish va

xotirjamlik bosqichiga o'tish muhimdir. Shuning uchun uzoq davom etadigan ruhiy zo'riqliklardan qochish, ko'proq dam olish lozim. Bu yurakning barqaror ishlashi uchun hayotiy zaruratdir.

Avvalo, uzluksiz taranglik keltirib chiqaradigan davomli ruhiy-emotsional yuklamalar ta'sirini kamaytiruvchi sharoit yaratish lozim.

Muntazam ravishda o'zingizni tarbiyalab va takomillashtirib boring, avvalo o'zingizga, so'ngra boshqalarga talabchan bo'ling. Bezovtalik bilan kurashning eng ishonchli uslubi doimiy bandlik hisoblanadi. Faol ijtimoiy munosabatlar muloqot qobiliyatini shakllantiradi. Shaxsning imkoniyatlarini ochishga yordam beradi. Boshqalarga yaxshilik istagi o'zingizga yaxshilik keltiradi, yomon kayfiyatda bo'lishdan saqlanib, nafratingizni atrofdagi insonlarga sochmang.

Agar xato qilsangiz, darrov buni samimiy tan oling, agar nohaq bo'lsangiz, tezda unutishga harakat qiling va boshqalarga e'tiborli bo'ling. Har bir qarash nisbiy. Biroq har bir nuqtayi nazarda haqiqat bor. Ishoning, ammo o'ta ishonuvchanlik ham



tajribasizlik tufayli insonning iztirobga tushishiga sabab bo'ladi va eng yomoni, hammadan xavfsirab yuradi.

O'zingizni boshqarishni, tutishni o'rganing! G'azab, o'ta ta'sirchanlik, jahol odam hayotini izdan chiqaradi.

va mol yog'lari), yog'li go'sht, baliq va qo'ziqorindan tayyorlangan qaynatmalar, oshirilgan yog'li xamirdan tayyorlangan taomlar, pishiriq, alkaloid, gazli suv, achchiq choy, kofe, kakao, shokoladlar mumkin emas.

Yana bir muhim maslahat. Qora choy iste'molini ko'k choy bilan almashtirish tanadagi xolesterin miqdorini 15 foizgacha kamaytiradi. Chunki ko'k choy tarkibida kapillyar qon tomirlar devorini mustahkamlovchi va zararli moddalar darajasini kamaytiruvchi birikmalar mavjud. Ko'k choy ichish natijasida foydali xolesterin darajasi ortishi aniqlangan.

Sabzavot va mevalardan yangi siqib olingan sharbatlar xolesterinni kamaytirishga hissa qo'shadi. Masalan, seldir, sabzi, lavlagi, bodring, olma, karam va apelsin sharbatlari shunday xususiyatga ega.

Bir haftada 3 tadan ortiq tuxum iste'mol qilmang. Iloji bo'lsa, tuxum sarig'ini kamroq yeyish lozim. Chunki tuxum sarig'ida xolesterin miqdori ko'p, oqida esa yo'q. Ovqatga ko'proq dukkakli mahsulotlar — loviya, no'xat, jo'xori ishlatib. Ular tarkibida organizmdagi ortiqcha xolesterinni haydat chiqaradigan pektin moddasi mavjud.

Iloji boricha ko'proq meva va pishirilmagan sabzavotlarni iste'mol qiling. Ulardagi S vitamini tanadan xolesterinni chiqarishga yordam beradi. Sabzavotlardan sabzi, karam va piyozda pektin moddasi ko'p. Masalan, sabzidan kuniga 1-2 ta iste'mol qilsangiz, xolesterin miqdorini 10-20 foiz kamaytiradi.

Taomnomangizda yog'siz go'sht bo'lsin. Ammo bir kunda 200 grammdan ko'p go'sht iste'mol qilmang. Baliq iste'moli juda foydali. Chunki baliq go'shti qon tomirlarini ateroskleroz tiqinlaridan himoya qiladi. Sarimsoqiyoz qonda xolesterin miqdorini kamaytiradi.

Ko'plab tadqiqotlar natijasi ko'rsatadiki, to'g'ri tuzilgan va tartibli qabul qilingan sog'lom oziq-ovqat mahsulotlari yurak-qon tomir kasalliklarining oldini oladi, hatto xavfli omillar va irsiy moyillik bo'lgan taqdirda ham kasallik rivojlanishiga yo'l qo'ymaydi.

Vaziyatni tahlil qiling, salbiy emotsiyalar manbaini topib, uni bartaraf eting. Salbiy emotsiyalar va noadekvat tutish o'zini o'ta yaxshi ko'rishdir. Ya'ni egoizm tufayli qator nizolar kelib chiqadi. Eng yaxshi chiqish uslubi — bandlik va mehnat. O'zingizda sabr-toqat, qanoat kabi fazilatlarini shakllantirib, arzimagan ikir-chikirlar uchun bezovta bo'lmang va o'zingizdan chiqib ketmang.

Doim yodda tutish zarur, har qanday sayohat birinchi qadamlardan boshlanadi va har qanday qiyinchilik bizga sabrimizni, qat'iyatlilik, mardlik, jasurlik va ruhiy kuchimizni shakllantirish uchun beriladi. Shunday ekan, miyani faqat ijobiy, ezgu fikrlar, yaxshilik, quvonch, salomatlik kabi istaklar bilan boyitish zarur. Hayotimizni fikrlarimiz belgilab berishini unutmang.

Sog'lom turmush tarzi yurak-qon tomir kasalliklarining oldini olish va davolashning asosidir. Muntazam jismoniy faoliyat, to'g'ri ovqatlanish va ruhiy barqarorlik yurak-qon tomir kasalliklariga chalinish ehtimolini kamaytirish, hayot sifatini yaxshilashga yordam berishini yuqorida ta'kidladik. O'z sog'lig'ingiz va yaqinlaringizning salomatligiga befarq bo'lmang. Bu osoyishta, sog'lom va baxtli kelajakka sarmoyadir.

Sahifani "Yangi O'zbekiston" muxbiri Risolat MADIYEVA tayyorladi.

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati) DM

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqrib qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlil chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 346.
37346 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

"SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.

Navbatchi muharrir: Yunus Bo'ronov
Musahhir: Malohat Mingboyeva
Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzillimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy